

ҚОЗОҚНИҢ ҚИРҚ
ОҚИНИДАҢ ҚИРҚ ҮЛДН

QOZOQNING QIRQ
OQINIDAN QIRQ O'LHN



ҚОЗОҚНИНГ ҚИРҚ
ОҚИНИДАН ҚИРҚ ҮЛДӘН

QOZOQNING QIRQ
OQINIDAN QIRQ O'LАН



Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

92



821.5
15 54

ҚОЗОҚНИНГ
ҚИРҚ
ОҚИНИДАН ҚИРҚ
ҮЛАН

Шеърлар



«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Давлат илмий нашриёти
Тошкент – 2018 йил

УУК: 821.512.122(081)

КБК: 84(5Коз)

Қ – 54

Таржимон:

Янгибай ҚҰЧҚОРОВ –

Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими

Сўзбоши муаллифи:

Адҳамбек АЛИМБЕКОВ –

Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Халқаро адабий алоқалар
ва бадиий таржима кенгаши масъул котиби, филология
фанлари номзоди

Тақризчи:

Меҳмонқул ИСЛОМҚУЛОВ –

Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Қозоқ адабиёти кенгаши
масъул котиби, «Алаш» халқаро адабий мукофоти соҳиби

Қ – 54

Қозоқниң қирқ оқинидан қирқ ўлан /
(Сўзбоши муаллифи – Адҳамбек Алимбеков)
Шеърлар. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий
энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти,
2018. – 128 б.

Икки абадий дўст давлатлар раҳбарлари раҳнамолигида 2018 йил Қозогистонда «Ўзбекистон йили» деб эълон қилинди. Шу муносабат билан Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси ва мазкур нашриёт ҳамкорлигига тайёрланган ушбу тўпламда қардош қозоқ шеъриягининг турли авлодларига мансуб қирқ атоқли шоирнинг энг сара шеърларидан таржималар берилмоқда.

УУК: 821.512.122(081)

КБК: 84(5Коз)

ISBN 978-9943-07-626-6

© «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2018.

КҮНГИЛДАГИ ҚИРҚ ҚҰШИҚ

Ўзбек-қозоқ адабий алоқалари ҳақида сұз кеттганды, биз, аввало, икки халқнинг тарихий илдизи бирлигини айтишимиз керак. Қадим-қадимдан бу икки халқ ёнма-ён яшаб, бир дарёдан сув ичиб, бир яйловда чорвачилик қылғанлар. Бир сұз билан айтганда туташ тақдирли халқ. Faфур Fuлом ёзганидек: «Икки бошга бир манглайдай ярқирок тақдиримиз».

Кейинги вақтларда муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев ва Қозогистон Республикаси Президенти Нурсултон Назарбоев ташабbusлари билан адабий-маданий алоқаларимиз янада жадаллик билан ривожланмоқда. Шу йил 15 март куни Остона шаҳрида «Астана операси» театрида 2018 йил Қозогистонда «Ўзбекистон йили» дея эълон қилинди. 2019 йил Ўзбекистон Республикасида «Қозогистон Республикаси йили» деб аталади. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Буюк қозоқ шоипи ва мутафаккири Абай Құнанбоев ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш тұғрисида» Қарори ҳар икки халқни бирдей севинтирди. Бу ўзбек халқининг қозоқ халқига, адабиётiga бұлған ҳурматининг ёрқин далилидир. Шу муносабат билан Қозогистонда ўзбек ва қозоқ ижодкорлари ҳамкорлигіда мушоиралар, адабий анжуманлар үтказилмоқда. Яқындагина 27-28 март кунлари Жанубий Қозогистон вилоятининг Чимкент ва Туркистан шаҳарларида бир неча адабий анжуманлар үтказилди. Туркистанда Соҳибқирон Амир Темурнинг 682 йиллигига бағишиланган халқаро илмий конференция бўлиб ўтди.

Айтиш мумкинки, 2018 йилдан бошлаб ўзбек-қозоқ адабий-маданий алоқалари янгидан жадал ривожла-ниш йўлига чиқди.

Ўзбек-қозоқ адабий алоқалари деганда биз, аввало, Абай Қўонбоевнинг Навоий ижодига бўлган ҳурмати-ни, Навоийни ўзига устоз деб билгани ёдимизга келади.

*Фузулий, Шамсий, Сайқалий,
Навоий, Саъдий, Фирдавсий,
Хўжа Ҳофиз – Сиз ҳаммангиз,
Мадад беринг, қылманг осий!*

Бу силсилани давом эттирган Faфур Fулом ва Собит Муқонов, Ойбек ва Мухтор Авезов, Миртемир ва Абдулла Тожибоев, Зулфия ва Турсунхон Абдураҳмонова, Жуманиёз Жабборов ва Сирбой Мавлоновлар кўз ўнгимизда гавдаланади.

Қозоқ адабиётини ўзбек китобхонлари ўртасида машҳур бўлишида Зумрад, Носир Фозилов, Саъдула Сиёев, Мирғулат Мирзо, Мехмонкул Исломкулов ва бошқа кўпгина таржимонлар хизматини алоҳида таъкидлашимиз керак. Булар қаторига Янгибой Қўчкоров ҳам қўшилди. Унинг таржимасидаги «Қозоқнинг қирқ оқинидан қирқ ўлан» шеърлар тўплами қозоқ ёзма адабиётининг тамал тошини кўйган Абай Қўонбоевдан бошлаб шу кунгача яшаб ижод этган ва шу кунда ҳам ижодда давом этаётган қирқ оқиннинг асарларидан намуналар жамланган. Бу тўпламнинг янгилиги М. Дуллатов, Б. Майлин, М. Ҳакимжонова, Қ. Шангитбоев, Т. Бердиёрөв, Е. Иброҳимов ва бошқа асарлари ўзбек китобхонига биринчи марта тақдим қилинаётган ижодкорлар ҳам бор. Тўпламдаги шеърлар мавзу жиҳатдан ранг-бараанг. Китобда Ватан, миллат қайғуси битилган сатрлар билан бирга, табиат, муҳаббат ва қозоқ ҳалқ оғзаки ижодига хос бўлган айтишув шаклидаги шеърларнинг берилиши ихчам китобда кенг қамровли қозоқ

шөърияти ҳақида тұлғароқ тасаввур уйғотиши йүли-
даги интилишдір.

Шокарим Кудойбердиевнинг қуидаги сатрлари
бутун ижодкорларнинг дилидаги гапдек. Айни пайтда
халқ ғамини акс эттирган сатрлардир:

*Мен кетарман, ортимда сұз, созим қолар,
Кейин келган авлод үндан баҳра олар.
Бириси жүн, бириси зид айтабди деб,
Баҳслашиб билганинча синга солар.*

Ёки Миржақип Дулатовнинг «Элим-ов» шеърида-
ги қуидаги сатрларда халқи учун ёнган шоирнинг
юраги күриниб турибди:

*Мозий – сароб, истиқболинг мавхұм, тор,
Әтга үчсан қызарғанга күп хүмор,
Сақлан деган сұзни уққан қайды бор,
Қармоқ, емга чопта үнча, элим-ов!*

Мана шундай руҳ Аҳмад Бойтурсынов сингари
оташнафас шоирларнинг шеърларида ҳам балқиб
турганини сезамиз:

*Әддан чиқса тегди дея луқма таом,
Бұлмайдими еганимнинг бари ҳаром.
Инсон бұлыб, инсонга хос иши қылмасдан,
Сүнгги дамда нечук олгум гүрда ором?*

Юқоридаги таржималарда мутаржим шеър
оҳангдорлигини, мазмунини тұлға беришта ҳаракат
қиласы. «Синга солар» ифодасининг ўзи ағдарувчи
шеър моҳиятини англаб таржима қылганини құрсатыб
турибди.

Маряム Ҳакимжонованинг табиат манзаралари
тасвирланған қуидаги шеърида қозоқ ёзма
адабиётининг халқ оғзаки ижоди билан қанчалик
ҳамоҳанглигини ҳис қиласыз:

*Қияликда қизил гул
Нима қилиб турибди.
Баргларида офтобнинг
Нури кулиб турибди.*

Жўбон Мўлдоғалиев, Умар Шипин, Мағжон Жумабоев, Султонмаҳмуд Турайгиров, Сакен Сайфуллин, Бейимбет Майлин каби шоирларнинг янги таржима қилинганд шеърларида миллат, юрт ташвишини чекиши устуворлиги кўриниб туради. Масалан, Жўбон Мўлдоғалиев мисраларига қулоқ солинг:

*Мен қозоқман минг бор ўлиб, минг тирилган,
Юрагимдан таниб, тилга мунгни илган.
Йиглаганда қалб тутилиб қуёш каби,
Кувонганда кулгим кўриб тун тирилган.*

Тўпламга таржималари киритилган Дихан Абилов, Абдулла Тожибоев, Турсунхон Абдураҳмонова, Сирбой Мавлонов, Ўлжас Сулаймонов, Фариза Ўнгорсинова, Нурлан Ўрозалин, Улуғбек Эсдавлат ва бошқа шоирлар ижоди учун характерли бўлган шеърлар танланган.

Қозоқ шеъриятидан янги намуналарнинг ўзбек тилида нашр қилиниши, ўзбек шеърхонлари учун яхшигина тухфа бўлибгина қолмай, қозоқ шеърияти билан таништиришда ва икки халқ ўртасидаги адабий алоқаларни яқинлаштиришда дадил қадам бўлади деб ўйлаймиз. Таржимон Янгибой Қўчқоров кўп йиллардан буён таржимонлик фаолияти билан шуғуланиб келаётгани таржималарнинг муваффақиятли чиқишига омил бўлган.

Адҳамбек АЛИМБЕКОВ,
*филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон
Ёзувчилар ўюшмаси Халқаро адабий алоқалар ва
бадиий таржима кенгаши масъул котиби.*

АБАЙ ҚҰНОНБОЕВ
(1845 – 1904)

ИЛМ ТОПМАЙ МАҚТАНМА...

Илм топмай мақтанма,
Үрнинг топмай бопланма,
Хұзур тортиб шодланма,
Чув тушиб ёт кулгига.
Беш нарсадан қочиқ бұл,
Беш нарсага ошиқ бұл,
Инсон бұлай десангиз.
Мақсад, умринг олдингда,
Уни деб ғам есангиз.
Фийбат, ёлғон, мақтанмоқ,
Танбаллигу мол сочмоқ –
Беш ёвингиз билсангиз.
Хунар, меңнат, теран үй,
Қаноат, раҳм, үйлаб қүй –
Беш асл иш, күнсангиз.
Ёмонликка нафратни,
Вазмин диддан тийсангиз.
Яхшиликка ибратни,
Үйингизга йифсангиз.
Олим бұлмай не бұлур,
Болаликдан сұрсангиз.
Бұлмасанг ҳам интилгил,
Бир олимни күрсангиз.
Үндоқ бұлмоқ қайды деб,
Айтма илм сүйсангиз.
Сизга билим ким берар,
Ёнмай туриб сұнсангиз?

Дунё, мол келар ўзи,
Билимга қалб берсангиз.
Билганларнинг сўзига
Муҳаббат-ла кирсангиз.
Ақдингизга ишонинг,
Бир ишга дуч келсангиз.
Оқсоқол, бойми айтди,
Ким бўлсин, майли, айтди,
Идрок билан енгсангиз.
Нодонларга бўй берма,
Чин сўз билан ўлсангиз.
Оят, ҳадис эмас-ку,
Коғир бўлдинг демас-ку,
Қанчалар зид келсангиз.
Аён айтма кўп жойда,
Бизнинг гапга кирсангиз.
Буни ёзган кишининг
Исмин эмас, сўзин бил.
Бу ёлғончи дунёдан
Ўтди кўп чечан булбул,
Кўп сарбон миниб дулдул.
Сўз маъносин билсангиз,
Ақл – мезон, ўлчов қил,
Агар эгри кўринса,
Майли, ташла, майли, кул,
Агар тузук кўринса,
Кўп ўйлаб қулоққа ил.
Ақлли оз, аҳмоқ кўп,
Дема кўпнинг сўзи бул.
Яқин сўзи totли деб,
Яқин айтди демагин.
Нодон бўлиб айтса ким,
Ношуд гапга кирмагин.

Сизга айтгум, хавфим – бул
Үзинг учун ўргансанг,
Ёмонликдан жиркансанг,
Очилурсан йилма-йил,
Бирор учун ўргансанг,
Бирор билмас, сен билсанг,
Билганинг бари – тул.
Сўзга қараб киши ол,
Унга қараб сўз олма.
Чин сўз қайси билолмай,
Ҳар недан қуруқ қолма.
Буни билиб ёзган қул –
Луқмони Ҳакимдир бил,
Шундай депти ул дониш,
Сўзин ўқиб, қилгин иш,
Тез билиб, тез йўймагил,
Навқирон чоғ қўнгил – гул.



ЖАМБУЛ ЖАБАЕВ
(1846 – 1945)

ОЙКУМУШ БИЛАН АЙТИШУВ

Жамбул:

Атайин от терлатиб келдим түйга,
Ойкумуш, аввалданоқ келдинг үйга.
Ховури босилмаган чапдаст эдим,
Ошиқиб айтганимга айб қўйма!

Ойкумуш:

Ҳаллослабсан ҳа дегандан сўрашмасдан,
Одобни ўрганмабсан, Жамбул, ёшдан,
Аршдаги аслга ҳам қўл етмасми,
Ақл билан қимиirlасанг сал шошмасдан.

Жамбул:

Ойкумуш, шошмасликка чама борми,
Ўсмирилик уринтириди талай ёрга.
Сени деб ётсам, турсам тинчим йўқдир,
Ем бўлиб кетарми деб ёмонларга.

Ойкумуш:

Биларми ўрзлик банда ўз камини,
Эл кезиб ўтказаркан ҳар дамини.
Ёт юрт учун яралган урфочимиз,
Мен учун ахтарма дил малҳамини.

Жамбул:

Борарсан бир ёмонга ўзинг хўр бўлиб,
Ўтирибсан қарқарадай ҳозир зўр бўлиб.
Кўзингга кўк чивинни шамфалатгай,
Кўрганинг ўла-ўлгунча нуқул шўр бўлиб.

Ойкумуш:

Жамбул-ов, куйинасан нега бунча,
Кутқаргандек кўп қизни гулдан фунча.
Кўлдаги қарчифайни нега йўйдинг,
Дунёнинг тизгинини тутсанг шунча?

Жамбул:

Ёлғоннинг шўридир қиз билан йигит,
Юрмаган ўйнаб-кулиб бирор маврид.
Орини босолмаган орсиз кўнгил,
Яна кутиб ўтирибди сиздан умид.

Ойкумуш:

Йигитга қўрингайдир умид енгил,
Ёлчимас ўшал хулқа кўнган кўнгил.
Ёрқиним, қон томиринг не деб урап,
Ҳар нени теравермай, ростни дегил.

Жамбул:

Туя эмас, тўққиз эмас, тилаганим,
Юпатмагай зор кўнглингни бу ўланим.
Бўлмасанг сўзга ночор, ичдан ўжар,
Сезардинг сирим ҳатто ўтирсам жим.

Ойкумуш:

Жамбул-ов, жон экансан сүзга нүнок,
Қай хулқим номаъқулдир сенга бу чоқ?
Сен дидингни яширмасдан айтавергин,
Мендан талаб бұлса айтгин очиғроқ.

Жамбул:

Овулим яйлов тутган Оқсунгирни,
Күз суздим сиз томонга томир урди.
Құлымга бир ушлатсанг тушунгайсан,
Дүмпайған түшингдаги ўртандурни.

Ойкумуш:

Жамбул-ов, ушлатмайман, айб құйма,
Кетайин қайтиб ордан ушбу түйда.
«Яхши сүз – жон озифи» деган бор-ку,
Одобли хулқинг доим юрсин ўйда.

Жамбул:

Ойкумуш, иложим йүқ, хайр, хуш қол,
Кетайлик сир билдирмай ётлар мисол.
Исмингни, оқ юзингни унутмасман,
Вужудимда ўт сұнгунча, соҳибжамол...

ШОКАРИМ ҚУДОЙБЕРДИЕВ
(1858 – 1931)

**МЕН КЕТАРМАН, ОРТИМДА СҮЗ,
СОЗИМ ҚОЛАР**

Мен кетарман, ортимда сүз, созим қолар,
Кейин келган авлод ундан баҳра олар.
Бириси жүн, бириси зид айтибди деб,
Баҳслашиб билганинча синга солар.

Табиатда ўтганларга бордир синов,
Ёмон учун нафрат, яхши учун сийлов.
Ұлиб кетгач далиллашга бормас тилим,
Тирик чоғим афзал эрур буни сўйлов.

Бирвларни синаш қийин билиб-бilmай,
Умрининг қоқ ўртасинда құзга илмай.
Елкасида юки оғир йұловчини
Йұл четида күрсанг ўтгин мазах қилмай.

Қайиқ билан денгиз кездим оғир кунда,
Гирдоб бўлди жадал тұлқин қора тунда.
Замонани замонага құшолмасак,
Шул қайиққа ўтирайлик сен-да, мен-да.

Доя топмай кесганның үз киндигимни,
Зұрға очдим тор унгурдан туйнугимни.
Умр сурган жойимни гар тугал уқсанг,
Шунда аниқ биладурсан кимлигимни.

АҲМАД БОЙТУРСУНОВ
(1872 – 1937)

ОНАМГА ХАТ

Қарофим-ов, дуогүйим, ғамхұр онам,
Бағишилаб хат ёзайин деб тутдим қалам.
Сени унда, мени бунда сақлаб омон,
Күришгани насиб этгай Ҳақ Таолом!

Боролмасдан үтирикчи бұлиб обдон,
Семейнинг кир турмасинда боланг бу он.
Мол үғирилаш ё қотиллик айби йүқдир,
Чора ҳам йүқ – салтанат бу зүр ҳукмрон.

Бор «Ноумид шайтон эрур!» деган сүз ҳам,
Йұллар күпдир жаннатта-да тарам-тарам.
Үққа учыб үн учимда, үйга толиб,
Юрагимда бордир битмай қолган ярам.

Ёддан чиқса тегди дея луқма таом,
Бұлмайдими еганимнинг бари ҳаром.
Инсон бұлиб, инсонга хос иш қилмасдан,
Сүнгги дамда нечук олгум гүрда ором?

Күп айтмасдан, қисқасидан англатгуви
Фарзандингнинг камгап хұлқи сенга аён.
Кетар дея «Сувга чүкиб, үтга тушиб»,
Менинг учун ғам чекмагин, қийнама жон.

Үтирибман авахтанинг бұлмасинда,
Буйруқсиз күз етмоқдадир үлмасимга.

Эшигининг қулфи маҳкам, посон бисёр,
Азроидан бошқа ҳеч ким келмасига.

Қалам билан лавхулмаҳвуз¹ унуганми
Ёзмабди-ку бу ҳужрага келишимни.
Қамғоқ билан салмоғи тенг замон, билдим –
Илож йүқ, чоғ – ел ҳайдагач елишимни.

Равон елар талай йўрға, талай тулпор,
Бўйин эгиб шум тақдирнинг тизгинига.
Улардан ҳам жоним-тўним ардоқлими,
Ўринсиз фам, изтиробга тушдим нега?!



¹ Лавхулмаҳвуз – одам қисмати ёзилгувчи илоҳий хат.

УМАР ШИПИН
(1879 – 1963)

ОМОНГЕЛДИ

(Достондан парча)

Түйлиқирда ёвига,
Ботир сүзин бошлади,
Ховлиқмасдан, ошиқмай,
Қадамин кенг ташлади.
Хужум бошлаб, бонг урди,
Қистаб учқур қашқани.
Күринди бу чорловга
Сарбоз селдек шошгани.
Оқмирзанинг күлинда
Қолди қанча дұстлари.
Үн түккиздан үттиз бир –
Қолмай элнинг ёшлари.
Совут кийиб сайланған
Эр қүшинга айтгани:
Бузинг қамишдек бураб,
Құргон қопқоғин, қани.
Қаҳрлансак метин құл
Тошни қилади кукун.
Жасур ёшлар майдонга
Чиқинглар элим учун.
Отланаман деганлар,
Құл чиқаринг бир енгдан.
Халқнинг ғамин еғанлар,
Икки ишга берсанг тан,
Бириңг айблаб бириңгни,

Сендан бўлди деманглар...
Эр бошига кун тугса,
Этик билан сув кечар.
От бошига кун тугса,
Сувлиқ билан сув ичар.
Овул боши қий-чувга,
Майдон қонга беланди.
Хурликни орзу қилган
Бошлар дорга бойланди...
Ўқ чангитиб милтиқдан
Қийратайлик душманни.
Тарих түфён-ла жилди
Эшик билан тўридан.
Қамишдан кўприк қуринг,
«Тўкен»нинг қир, кўлидан.
Кўлнинг барин жиловлаб,
Тезда киришиб ишга.
«Сувёргон»дан жон қолмай,
Ўроқ солдик қамишга.
Улов билан ташигач,
Қотган ердан чанг учди.
Бойларнинг тўқ норлари
Яқин қилди олисни.
Ёғоч ташиб кўрфаздан
Биёбонда тортишдик.
Оёқ етган ердаги
Қамишни халқ товиши².
Эл битказди кўприкни
Орни, номусни оқлад.
Тонг хўрози қичқиргач,
Ўтди қўшин тортиб саф.
Юзларидан ел суюб,
Отнинг ёлин тебратди.

² Товиши – ўриб тугатди.

МИРЖАҚИП ДУЛАТОВ
(1885 – 1935)

ЭЛИМ-ОВ

Дармон топмай дардингга мен эртадан,
Шул изтироб юрагимни ўртаган,
Қильт этмайсан бош күтариб күрпадан,
Қаддинг нега эгик бунча, элим-ов?

Мозий – сароб, истиқболинг мавҳум, тор,
Этга ўчсан қизарганга кўп хумор,
Сақлан деган сўзни уққан қайдা бор,
Қармоқ, емга чопма унча, элим-ов!

Қандай эдинг, қара ортга қайрилиб,
Турибсан-ку кўп бисотдан айрилиб,
Мункиллабсан, қўшқанотинг майрилиб,
Ўксиб, йифлаб ўтгай улча, элим-ов!

Буни мўрт, буш улан десанг, ўзинг бил,
Юрт бўлмайман, ўлгум десанг, ўзинг бил,
Не бўлса ҳам кўнгум десанг, ўзинг бил,
Остонада юрган қулча, элим-ов!

Тузаласан юртим қачон йўл солиб?
Тилдан кечсанг, кетмайсанми, йўқолиб?
Қайтар эдинг ўтган даврон орт қолиб,
Ёруғ юз-ла бўйнинг бур-чи, элим-ов!

Шуни кўрсам ушалгайдир армоним,
Йўқламасдим ўзга тилак, қолганин.
Юракда йўқ зигирча ҳам ёлғоним,
Шу хулқингда мангу тур-чи, элим-ов!

МАҒЖОН ЖУМАБОЕВ
(1893 – 1938)

СОФИНДИМ

Авахтада ойдан, кундан янгишиб,
Саргайдим-ку, сардаламни³ софиндим.
«Қорачуғим, қулуним», – деб оҳ урган
Олисдаги хор онамни софиндим.

Олтин Офтоб, қора ерни софиндим,
Жон йўлдошим – жадал елни софиндим.
Асов тойдек эркалатиб ўстирган –
Қариндошни, туққан элни софиндим...

Бўстонлиқда ўтган кунни софиндим,
Елдек эсиб кетган кунни софиндим.
Йил қушидек учсан, қўнсан бемалол,
Ўйлаганга етган кунни софиндим.

Ўйини бир қурдошларни софиндим,
Тилаги бир йўлдошларни софиндим.
Келажакка бирга режалар тузган –
Сирлашгувчи жон дўстларни софиндим.

Зардоб тўлди ёш юракка, толиқдим,
Таниш товуш оҳангига зориқдим.
Не дейиш ва не ишлашни билмасдан
Хўри бўлдим озод юрган халқнинг.

Юрагимга яқин жонни софиндим,
Ипак хулқали, ҳур жононни софиндим.

³ Сардала – бепоён дашт.

Отар чоги кунчиқардан оқариб,
Оқ ипакдек шаффоф тонгни соғиндим.

Не күрсам ҳам қавмим учун күрганим,
Менга шараф элим учун ўлганим.
Мен ўлсам ҳам қавмим ўлмас, яшнагай,
Ишласинлар құлларидан келганин!

Қалин элим, қалин қора әманим,
Файрати мұл, ҳайбатли эр полвоним.
Үзи кулгай, сириң берма, сабр қил,
Аҳмоқлар ҳеч пайқаганми имконин.

Қозоғимни, қалин элни соғиндим,
Сариқорқам – сайрон ерни соғиндим.
Бол булоқди, тиниқ, кумуш мавжли –
Шимолдаги ойдин күлни соғиндим.

Қувонганда «Хей, сеними!» деганлар,
Куйинган чоф мен учун ғам еғанлар.
Халос бүлмоқ қийин, қадам андухли,
Тизиб құйиб әртандын кеч қилғанлар.

Тангрим Эгам, ўзинг олгин панангга,
Тошбағирлар зорға қулоқ соларма?!

Боласидан тутқун бүлиб сарғайған,
Ким етказар саломимни онамга?

Авахтада ойдан, кундан янгишиб,
Сарғайдым-ку, сардаламни соғиндим.
«Қорачуғим, қулуним», – деб оҳ урган
Олисдаги хор онамни соғиндим!

СУЛТОНМАҲМУД ТҮРАЙФИРОВ
(1893 – 1920)

ИЛИҚ ТУН

Ёз оқшоми, ёруғ ойли, майин шамол,
Тоза ҳаво ютмоқ роҳат егандек бол.
Сулув юлдуз жимир-жимир чорлагандек
Кўркам нурнинг шуъласига нигоҳни сол.
Олтин ой бу тўлиб турган кенг дўнгалак,
Нур сепади ер юзига кўкка ўрлаб.
Юлдузлар ҳам тургани йўқ маъюс боқиб,
Ой шуъласин кучайтирас қаддин тиклаб.
Мовий ҳаво, тиник осмон айни ипак,
Кўрган зотда ўсар кўнгил, ўй ва тилак.
Ой оғуши, кўк самонинг қучогида,
Пичирлашиб сирлашади севган юрак.
Таралар гул-чечаклардан ёқимли ис,
Яшил барглар чайқалган чоф тошади ҳис.
Суюклини қучоқлаб жим кезсанг ўрмон,
Бахт топарсан, жонинг эса чин осойиш.
У ер асли сув соҳили бўлса қани?!
Узоқ юргач, дил меҳрга тўлса қани?!
Осмондан ой шуъласи тик тушган маҳал,
Оқ томоқдан бошланган бол бўса қани.
Кетмас ўшал тун сурати эсдан ҳеч чоқ,
Бундай севги, муҳаббат бу – сўнмас чироқ.
Қартайиб гўр эшигида турсанг ҳамки,
«Во-дариғ» деб айтдиради васлу фироқ.

САКЕН САЙФУЛЛИН
(1894 - 1938)

МАЙ ОИИДА

I

Май оиida ажойиб
Булатли күк, гулдурак.
Меҳр ёмгири қуйиб,
Чирой очди теварак.
Ерга тушиб қизил кун
Дунё яшнаб, рух кириб.
Үйнар бир түп ўспирин
Шодон сакраб, югуриб,
Симириб соф ҳавони
Ором олар кенг күкрап.
Күш қуйига күй қүшиб,
Шодланади ёш юрак.

II

Май оиida энг ажиб
Ранғга тоғ, ўрмон кирди.
Қаҳрли қиши чекиниб
Ер юзига жон кирди.
Япроқ, гулга бурканиб
Дараҳтларга сон кирди.
Күшлар сайраб эрта-кеч
Борлиққа забон кирди.
Барг, майса, қизғалдоққа

Ёмғирдан дармон кирди.
Капалак, ари гулдан
Бол ахтарган он кирди.

III

Май ойида гаройиб
Беҳишт дунё яйради.
Бойчечак ҳид таратиб,
Лочин қушлар сайдари.
Ёш юракнинг биринчи
Мұхаббати қайнади.
Учрашмоққа илк бор
Ошиқлар аҳд айлади.



БЕЙИМБЕТ МАЙЛИН
(1894 – 1938)

ГАДОЙГА

Сенинг зоринг – зорланганим умрга,
Сенинг оринг – муҳрланган күнгилга.
Сен не күрсанг, мен ҳам шуни күргайман,
Бел боғладим – оғир билан енгилга.
Сен йиғласанг – күздан ёшим томчилар,
Сен қувонсанг – қүздан намим артилар.
Айт үланни кенг далани янгратиб,
Кеча юрган қўйчивону молчилар!..



СОБИТ МУҚОНОВ
(1900 – 1973)

СУЛУВСОЧ

(Достондан парча)

Бой бўлгандир мол-мулки мўл Тиловберди,
Бойлик билан бошқарди у буткул элни.
Тўрт томонга мол ёйилса қуртдек қайнаб,
Қумурсқадек қоплар эди барча ерни.

Тўриқ қашқа, фозмўйинли йилқиларин
Икки-уч минг бошдан бўлиб қўшга берди.
Туялари қирларида бўта туғиб,
Қўйи кезган жойларидан қўзи терди.

Тиловберди ёш чоғидан йигит йифди,
Тўқсон турли ипак, баҳмал кийим кийди.
Бургут, този қўлинда жуфт-жуфтдан бўлиб,
Қашқир, тулки, кийикларни тоғдек уйди.

Ёш чоғинда қиз ахтариб кезди элни,
Ўз бўйига лойифини, яъни tengни.
Минг йилқидан кам бўлмаган қалин бериб,
Олтинойдек паризодни олган эди.

Икки-уч йил ўтгач ўқтам Тиловберди,
Олтинойдан тўнгич фарзанд – бир қиз курди.
Сулувсоч деб исмин қўйиб, ёш-яланг ва
Элни тўплаб гумбирлатиб зўр тўй берди.

Үн олтига келганида қизнинг ёши,
Тиззасига тушган эди ўрим сочи.
Қалам билан қора чизик тортган мисол,
Қийилганди қуралайдек қийғоч қоши.

Сулувсочнинг ўзгани ҳеч суйгиси йўқ,
Олтойидан бошқа ўтда куйгиси йўқ.
Дуч келганда қай жанобга кўз солса ҳам
Қиёслашда Олтойга тенг қўйгиси йўқ.

Олтойининг ширин тили булбулга хос,
Сўзлаганда майдек майин, суяги йўқ.
Тангри мисол сифингани танҳо Олтой,
Шу йигитдан ортиқ бирор кияли^{4*} йўқ.

Олтойини кўрмаганди кўпдан буён,
Юрагига соғинч тўлиб урди тугён.
Яйловларга йилқи ҳайдаб кетган Олтой,
Йил бўлса ҳам, юрар элга қайтмай ҳамон.

Үч Олтойнинг қўши юрди Нурон тараф,
Йилқиларни қишлиатмоққа у ер яраб.
Ўшал жойда қулай бўлди ёзги қўним,
Қўши кўчди Қулонўтмас ёққа қараб.

Савр туғиб, қорнинг юзи юпқа музга
Айланганда қўшни олиб кўчди изга.
Бу атрофда, теваракда от етгувчи
Эл йўқ, эди чорлагувчи нонга, тузга.

⁴ Кияли – кароматли.

МАРЯМ ҲАКИМЖОНОВА
(1906 – 1993)

* * *

Қиялиқда қызыл гул
Нима қилиб турибди:
Баргларида офтобнинг
Нури кулиб турибди.

Фунча яйраб турибди,
Елда ўйнаб турибди.
Соясида соқчилик
Булбул сайраб турибди.

Ифор сочиб турибди,
Ари күчиб турибди.
Хуморидан чиқсин деб,
Түшин очиб турибди.

Гул ўт ёқиб турибди,
Қанот қоқиб турибди.
Қримнинг тоғ-тошлари
Мамнун боқиб турибди.

Қызыл гулим, қызыл гул,
Бемаҳал сўлма дейман.
Офтоб тифи, довулга
Кул ё қул бўлма дейман.

ДИХАН АБИЛОВ
(1907 – 2003)

ЭЙ, МУҲАББАТ, МУҲАББАТ!

Эй муҳаббат, муҳаббат,
Оловсан, қалбим амри.
Дедим: сенсиз дунё ёт,
Бунга гувоҳдир тангри.

Лаззатингга тўйим йўқ,
Қамраб олдинг қонимни.
Сенсиз яшаш ўйим йўқ,
Бахтли эт жонимни!



АБДУЛЛА ТОЖИБОЕВ
(1909 – 1998)

* * *

Қани эй дұст, ҳофиз ошно,
Саволимга жавоб беріб айт үлан.
Сал... салгина чарақлаган бу офтоб
Сүниб қолса қандоқ қиласадим?

Қани эй, дұст, айтгин тағин,
Саволимга жавоб беріб айт үлан.
Сал... салгина бизлар ютган манов ел
Тиниб қолса қандоқ қиласадим?

Айтгин, тағин, сұнгги бор айт,
Саволимга жавоб беріб айт үлан.
Сал... салгина ёрим мени унутмоққа
Күниб қолса қандоқ қиласадим?

ҚОСИМ АМАНЖҰЛОВ
(1911 – 1955)

* * *

Эшигингнинг одди оқар сув,
Эрта билан туриб ёш сулув,
Тиниқ сувда юзларингни юв –
Сув юзида чеҳрам күринар.

Чұнтағингда оппоқ дастрұмол,
Бир четида менинг исмим бор.
Күргин ҳамда мени эсга ол –
Күзларингда шабнам күринар.



САФИНГАЛИ СЕЙИТОВ
(1917 – 2007)

* * *

Олисдасан сен мендан,
Чұзсам құлым етмагай.
Неча бора айтсам ҳам
Арзу ҳолим етмагай.

Олисдасан сен мендан
Олисдасан осмондай.
Йироққа кетдинг гүё
Қочмоқ сенга осондай.

Олисдасан сен мендан
Гүё олис хаёл, сас.
Унутгим келса ҳамки
Ёддан чиқариб бұлмас!



ЖҮБОН МҮЛДОҒАЛИЕВ
(1920 – 1988)

МЕН ҚОЗОҚМАН

(Достондан парчалар)

Мен қозоқман минг бор ўлиб, минг тирилган,
Юрагимдан таниб, тилга мунгни илган.
Йиғлаганда қалб тутилиб қүёш каби,
Қувонганда кулгим кўриб тун тирилган.

Мен қозоқман, ажал билмас онадирман,
Қурсоғига сифдирган кенг даладирман.
Пок гўдакман, бешигимдан овоз берган,
Даврларнинг тенгдошиман, донодирман.

Мен – йигитман, кураш, синга ошиқсан эр,
Вужудимда юраги бор чин ошиқнинг.
Ёнартоғдек даҳшат билан тўлғонганда
Бургут бўлиб чўққилярга учеб чиқдим.

Ёзолмадим, нима қиласай, хат билмадим,
Билдим фақат найза билан отнинг белин.
От устида унудим чин гадойликни,
От устида ўлсам агар шодман, дедим.

Етган эмас илмларга зийраклигим,
Сезмаганман унинг шунча кераклигин.
Қолавердим ёғдуга йўл тополмасдан,
Тошдек босгач эр шиддатин қоронғу тун.

Кейин билдим Ернинг асли шар эканин,
Үз ўлчами, ўзин чеки бор эканин.

Кўм-кўк хўқиз шохда уни кўтарган деб,
«Баракалла» деб юрганлар кар эканин.

Мен қозоқман минг бор ўлиб, минг тирилган,
Йўргагимдан таниб, тилга мунгни илган.
Йифлаганда қалб тутилиб қуёш каби,
Қувонганда кулгим кўриб тун тирилган.

Ёйиб қўйдим сирларимни дўст олдида,
Ўт бошида, яйлов, каму кўст олдида,
«Жон юраги қўзларидан кўрингувчи
Қозоқ, – дедим, – қаршингдаги қўш⁵ олдида!»



⁵ Қўш – қўнимтоҳ.

ЖАББОР УМРБЕКОВ
(1920 – 2010)

* * *

Кўп тикилдим, кўп тикилдим,
Кўзинг жалб этди юракни.
Ҳадиксираб нега кетдинг,
Зир титратиб кўкракни.

Журъат топиб сўз айтолмай,
Бахтим боғлаб, кўп юрдим.
Тоғдан излаб, тошдан топган –
Сен гулисан умримнинг.

Осмондаги оқ юлдуздай
Кўринасан кўзимга.
Муҳаббатнинг онтин бузмай,
Ўзимга кел, ўзимга!

ТУРСУНХОН АБДУРАҲМОНОВА
(1921 – 2003)

ЮЛДУЗ

Юлдузлар күпдир күкда,
Юлдузлар күп ерда ҳам.
Хуш кўраман кўкракда
Қалб юлдуздек ёнган дам.
Юлдузлар күп умрда,
Юлдузлар күп ўр-қирда.
Хуш кўраман мен бироқ
Ёнганини кўнгилда.



СИРБОЙ МАВЛОНОВ
(1922 – 1993)

* * *

Сенинг ниҳол кезингни
Күрдим бугун бир қизда.
Сенинг оҳу кўзингни,
Күрдим бугун юлдузда.

Сенинг маржон ёшингни
Күрдим бугун ёмғирда.
Сенинг эрка товшингни
Тингладим куз бағрида.

Сенинг мурғак чоғингни
Айтди бугун толбаргак.
Сенинг шўх қўшикингни
Айтди бугун бол булоқ.

Кечди танҳо кун бирга,
Ёнимда йўқдир ҳеч ким.
Билмадингми, билдингми?
Сен билан учрашдим жим.

БЕРХАЙР АМАНШИН
(1924 – 1985)

* * *

Фозлар қайтиб бораётир, фозлар қайтиб,
Қийқувлашиб куз келганин қизга айтиб.
Қайта қуйлаб мадҳ этгунча муҳаббатни
Кетдилар-ку ошиқларни хўб сарғайтиб.
Сарғаймайди ошиқлари яқиндаги,
Ёздан иссиқ юраклари салқиндаги.
Қўл музласа, юзлар қизиб, илиқ тунда,
Кўпроқ оҳу кўзлар порлаб, ялтиллади.
Қалин сочни куз силайди сокин палла,
Тун қўндоқда ошиқларга айтар алла.
Кўнгилларнинг кўклам мисол тошганини
Тинглаётир тош бурканиб ётган дала.



АБДУКАРИМ АХМЕДОВ
(1924)

* * *

Күнглим туманли эди,
Ел бўлиб қувиб кетдинг.
Үйим гумонли эди,
Қайта умидвор этдинг.

«Кел!» деган майин нафас
Эслатди тонг шамолин.
Жонимга берди ором,
Софинтирган жамолинг.

Армонли фақир жонин
Денгиздай тебратдинг-ку.
Дилкаш деб чақирганинг –
Чин ишонч уйғотди-ку!

БУРГУТ ИСҲОҚОВ
(1924 – 1991)

* * *

Муҳаббатнинг, суйишнинг
Йўли кўпдир, тури кўп.
Ўтга тушиб куйишнинг
Сифати кўп, сири кўп.

Бири – унинг болалик
Бозоридан келади.
Иккинчиси – кексалик
Озоридан келади.

Бири – унинг ўт бўлиб,
Ногоҳ ёниб, ловиллар.
Иккинчиси – дард бўлиб
Танинг секин эгаллар.

Муҳаббатнинг, суйишнинг
Йўли билан тури кўп.
Қайси келди билмадим,
Ёпишди-ку бири хуб.

ҚУВОНДИҚ ШАНГИТБОЕВ
(1925 – 2001)

РОМАНС

Алматининг оқ туманли тунинда
Турдик икки яшил дараҳт тагинда.
«Севаман» деб осилгандинг бўйнимга,
Қайда, қайда ўшал висол бугунда.

Айт-чи, ойим, қайда дейман ўшал вақт,
Топган мисол масрур эдим мўл бир баҳт.
Пешонангдан ўпид, босиб бағримга,
Кетган эдинг танга қуёш қўйиб нақд.

Айт, офтобим, қайда, қайда ўшал кез,
Қайда ўшал ҳайрон бўлган қора кўз.
Дараҳт ҳам йўқ, сен ҳам йўқсан ёнимда,
Хотирамда «Суидим» деган танҳо сўз.

ТҮҚАШ БЕРДИЁРОВ
(1925 – 1988)

* * *

Сила менинг сочимни,
Эркам, сени соғиндим.
Бошимдаги қировга
Бармоқ урмай кетдинг жим.

Күйгин, жоним, аччиқни
Үтгани олгин эсга.
Силай-силай сочимни
Оқартган сен эмасми?



ИЗТОЙ МАМБЕТОВ
(1929 – 1974)

* * *

Уйқуга чұмар онда
Сени үйладим,
Уйғониб сақармардонда
Сени үйладим.
Үйлайвердим
Юрсам ҳамки, үтирсам ҳамки,
Мени үйга солмоқ учун
яралғанмисан?

Чиройли қызы күрганимда
Сени үйладим,
Бир қызы сүзға кирганида
Сени үйладим.
Бирор қылса ахұду паймон,
Сени үйладим.
Ким алдаса дилда армоп,
Сени үйладим.

Үй сурмоқнинг маъносини
үйлаб күрмадим,
Мағзин чақиб, буй-бастини
буйлаб күрмадим.
Сенинг менга тегишли ёр
бұлмаслигинг ҳам
Эсимга ҳеч кирмабди-я ,
эй сарви қаддим!

ЭРГЕШ ИБРОХИМ
(1930)

* * *

Йилдан йилга сулув қизлар борадими күпайиб,
Сулувликнинг гул боғчаси борадими кенгайиб.
Ёки даврам йилдан йилга борадими торайиб,
Гоҳо узоқ ўтираман уйда нега мунфайиб?
Ўтар кунлар, ўтар йиллар ёниб

битган кул бўлиб,

Йилдан йилга кўпаяди сулув қизлар гул бўлиб.
Йилдан йилга кўпаяди қариндошлар

оқ манглай,

Қўлин силкиб менга бари кетиб бораётгандай...



МУҚАФАЛИ МАҚАТАЕВ
(1931 – 1976)

Ошиқман!

Чин ошиқман ул инсонга!

Мен бўлмасам бўлмайин.

Ўшал омонми?

О, Тангрим, қандай жон бу қайрилмагувчи,
Юраги этданми ё қайсиdir жездан?!

Ошиқман!

Қай йўсинда яшира олгум,

Олтин эрур унинг ҳар тола сочи.

Софинайин, соб бўлсам ҳам, софингайдирман,
Асли софинч учун яралган ошиқ.

Парвоз қилсам қўлим етмас кўкда кунга,
Эй, оққанот қушим менинг кетганингми?
Чарх урасан, бор оламни бир айланиб,
Мангуд сени излаш билан ўтганимми?

Энг заъфарон соғинчимни босиб бўлиб,
Бор умид, бор ишончимни сочиб бўлиб.
Сени дея ўтгайман мен бу ҳаётдан
Ҳам мангуга қолгайдирман ошиқ бўлиб.

ШАМИЛ МУХАММАДЖОНОВ
(1931 – 1980)

* * *

Туманли тун, сокин тун,
Қучдим сени, суюклим.
Түфён урди юрагим,
Бор дунёни унутдим.

Туманли тун, сокин тун,
Қучдим сени, суюклим.
Кўнглимнинг соф кўкидан
Нурин тўқди кулиб кун.

Туманли тун, сокин тун,
Қучдим сени, суюклим.
Чўққисида турибман
Бахт отлиф бийикнинг.

Мангу бизлар бирлашган,
Юрак тўнгич тиллашган.
Чиқармагин, севгилим,
Туманли тунни эсдан.

ҚҰШЖОН МУСИРЕПОВ
(1932 – 1967)

* * *

«Севдим» деган танҳо сұзда улуғлик,
«Севдим» деган танҳо сұзда илиглик.
«Севдим» деган ошиқларнинг сүзинда
Дунёда энг нағислигу сулувлар.

...Икки вужуд ўртанади ўт бўлиб,
Икки вужуд ёниб, куйиб, чўф бўлиб.
Икки вужуд чирмашганда бетоқат,
Дунё кўздан қочар, кетар йўқ бўлиб.

Нафас тўхтаб, мастдир қўнгил, сархуш бош,
Бир-бирини кўрмас икки кўзу қош.
Ҳаяжонли жовдир кўздан «тирс» этиб,
Ўмровларга юмалайди томчи ёш.

Юрак қурғур гирдоб мисол чарх урар,
Сабр қурғур нигоҳларда барқ урар.
Ўшал дамда сеҳрли сўз, сирли сўз,
Қайноқ нафас билан балқиб айтилар!

Шунинг учун ўшал сұзда улуғлик,
Шунинг учун ўшал сұзда илиглик.
«Севдим» деган ошиқларнинг сүзинда
Дунёда энг нағислигу сулувлар!

ҚОДИР МИРЗАЛИЕВ
(1935 – 2011)

* * *

Күз олмайман учрашган бир кезимда,
Сен деганда қаноат йүқ сезгимда.
Осмон бүлиб кетсанг ҳамки сен агар
Қарогимга жойлаб олгум,
Ишонавер!

Күрмай сени туролмасман уч ҳафта,
Сен деганда қаноат йүқ қучоқда.
Асқар төг бүт кетсанг ҳамки сен агар,
Қучофимга сиғдиралан,
Ишонавер!

Юз суйишга, минг суйишга эринмам,
Сен деганда қаноат йүқ
Баҳри Мұхит бұлсанг ҳамки сен агар,
Бир томчингни қолдирмайман,
Ишонавер!

ТУМАНБОЙ МҮЛДОҒАЛИЕВ
(1935 – 2011)

* * *

Қозоқ деган халқнинг боласиман,
Боласига берадиган бор асилин.
Нуқсон кўрса қийналгувчи инисида,
Тилин олиб ўсадиган оғасининг.

Қозоқ деган халқнинг боласиман,
Ёқасидан олмайдиган доносининг.
Отасининг айтганидан чиқмайдиган,
Бирор сўзин йиқмайдиган онасининг.

Қозоқ деган халқнинг боласиман,
Оқи билан кўзининг қорасиман.
Халқин мақтаб юрадиган ҳар бир жойда,
Урфин сақлаб юрадиган бобосининг.

Қозоқ деган халқнинг боласиман,
Йўлга ташлаб кетмайдиган жон ошигин.
Синглисини қизи каби эркалатиб,
Айдиган гули мисол даласининг.

Қозоқ деган халқнинг боласиман,
Тўй-базмда эътиборда сарасиман.
Жон опасин кўрадиган анбиёдай
Унга очиқ айтадиган бор-йўқ сирин.

Қозоқ деган халқнинг боласиман,
Тилайдиган кўнгилларнинг ярашувин.

Түй чорласа ойлик йүлдан келадиган,
Фақат тилга берадиган бор аччиғин.

Қозоқ деган халқнинг боласиман,
Олдда қанча довонлардан бор ошмоғим.
Юрар йүлім орзу йұли, баҳт йұли,
Мумкин эмас үшал йүлдан адашмоғим.

Қозоқ деган халқнинг боласиман...



ЖУМЕКЕН НАЖИМЕТДИНОВ

(1935 – 1983)

* * *

Сенинг сочинг тун десам
Янглиш туйғу экан-ку.
Кулиб турған күн десам
Сенинг кулгунг экан-ку.

Шовуллаган ҳур ўрмон
Сенинг лабинг экан-ку.
Сув тутған чанқаган он
Булоқ қалбинг экан-ку.

Япроқлари гулларнинг
Майин кафтиңг экан-ку.
Пешонангга тушган нур
Тонгнинг тафти экан-ку.

Қаҳрланса булатдан
Ёмғир ва қор экан-ку.
Дунёнинг бутқул күрки
Сенда ҳам бор экан-ку.

**ҮЛЖАС СУЛАЙМОНОВ
(1936)**

**БОЛАЛИК КЕЗ.
БОҒ-БОҒЧА. ОФТОБ**

Бир мучалга тўлмагандим мен ҳали,
Олис овул.

Чилла – асад.

Болалик.

Кўча бўйлаб жадал ўтар от қўшилган арава.

Чанг босган боғ.

Йўқдир бошқа бирор янгилик.

Ётган чоғи дала – жанглар орқасида ҳансираб,
Бир келинчак бизнинг уйда яшаб турди

Хол сўраб,

Мийигида кулса

Қолар эдим қизариб,

Ўн уч ёшга қадам қўйган пайтларим.

Ўзи эдим томмай кетган ёмғирнинг,

Ўзи эдим эсмай ўтган довулнинг.

У булоқда чўмилганда

Қувардим

Назар соглан бузуқларин овулнинг.

У кулганда яшнаб кетар эди қир,

Шунинг бари кўкрагимда сайрабдир.

Ҳамон эсда

Деразасин тагида

Турган эдим
Тишларимни қайраб бир.

У турмушга чиқди.
Түйи ўтди. Никоҳи ўқилган тун.
Фақат менинг устимга
Қайғунинг қоп-қора булути тушди.
Дарчадан қарадим. Бағрим бұлды хун.
Эри келди,
У жуфтининг бүйнига
Осилди-да,
Құчоқлашди,
Ўпишди.

Бириң-бириң шом ҳам тушди.

Кеч ўтди.
Аёл солди
Ўтдек иссиқ түшакни...
Шам ўчди-ю
Пичир-пичир бошланғач
Деразага улоқтирдим кесакни!

Менинг буткул тинчимни ўғирлаган
Бу уйгами?
Энди уни елкамнинг чуқур күрсін!
– Сен эдингми? – деб отилиб чиққанида,
– Енгилтаксан, йўқол! – деб сочдим алам.
Болалик қурсин...

Шу эҳтимол эртагимнинг ўлгани,
Синиб, тиниб аччиғим соб бўлгани.
У эрининг тўсди йўлини,
Қўлларимга қўйди қўлини,

Кафти қайноқ эди беҳад.

– Айланайин, аҳмоғим, – деб. – Аҳмоғим,
Оғушига олиб турди бир фурсат.
Оғушидан отилиб чиқдим,
Олисларга кетдим югурниб.

Мен түнғизман.

Мен одамман беүхшов,
Энди бу уй менинг учун қўйсинг ғов.
Уятимни қандай ювиб-чаяман,
Қўзларига қарашга берарманми дов?

Ўшал кез ҳам ўтди-кетди.

Юмиб-очмай қўзимни.
Бекитолмай сенга бўлган сезгимни.
Ҳамроҳ бола таъзим учун эгилган чоғ
Севгилим,
Қўйгани жой тополмайман ўзимни.

Пайқайсанми,
Шу-ку сенинг «аҳмоғинг»,
Ранжитмагил,
Бор бетидан бир чимчилаб
Елкасидан қоқмоғинг.
Аямайди у ўзининг юрагин,
Болалигин,
Боғ-боғчасин,
Офтобин!

ТҮЛАГАН АЙБЕРГЕНОВ
(1937 – 1967)

СИР

Күм босиб мунгайган чұлларда
Отилиб қолған зил армондай.
Сен ёқда түккізга тұлғач ой,
Тұхтади хатлар ҳам үрмондай.

Тұхтади хатлар ҳам мартилиб
Қаноти қайрилған каптардек.
Пардага тушмасдан чертилиб,
Иплари узилған тордек.

Тилсімдан тұхтади жимгина
Бу тұғрида огоҳ ҳам этмай.
«Ярқ» этиб күзимнинг учидан
Фойиб бұлған оқшомги үтдай.

Ошди чоғи қандайдир чекдан
Вужудимга юрагим асир.
Шундан буён үтибди ўн йил,
Софинган жон учун ўн асп.

Мен бұлсам юрардим бу чоғлар,
Үйларимни тизиб бир сафга.
Гүёки сотилған элчидей
Улов билан обрү, мансабга.

Орамизда қолған мұл аршин,
Кетдими ё тирик үлдириб.

Йўлга ҳам отландинг чамаси,
Ёғоч товофингни тўлдириб.

Кўрмайман деб айтган эмасман,
Етиб бўлмас, чеки йўқ қирлар.
Қўйди деган билан беҳисоб,
Босилди, шекилли, ёмфирлар.

Бешикдан бошланган таъбирдан
Бўларсан бутунлай хотиржам.
Бир пайлар ардоқли ўриндан
Бўсафа деб уққан чоғинг ҳам.

Жонимга азизсан, яқинман,
Бугун ҳам юракдан сизлайман.
Мен бўлсам бир ошиқ оқинман,
Озгина баҳтимни излайман.

Софиниб боғларни ахтардим
Оқарди тонгларнинг товони.
Кўпирган соҳилда кемалар
Боғланган кўрфази – гавани.

Балким, сен буларни ор санаб,
Йўқолдинг бўйнингда йўқ издай.
Хуфтонда тоғларнинг ортига
Шуъласи бекинган юлдуздай.

Олдимда тоғларнинг тизмаси,
Гўёки денгизнинг ёллари.
Келмоқда мени ҳам аллараб,
Юмалоқ заминнинг йўллари.

ФАРИЗА ҮНГОРСИНОВА
(1939 – 2014)

Икков – ҳақмиз. Үтирибмиз тил қотишмай,
Сен Кунчиқиш, мен-чи гүё Кунботишдай.
Бу сукунат қанча құнлар этгай давом
Юрардик-ку қайғу билан мунгга тушмай.

Нега, нега кетдик шұнча олис бўлиб,
Сұниб қолган юрак каби янгиш бўлиб.
Үтирибсан йигитга хос үжарлигинг
Эгилишга йўл бермаган номус бўлиб.

Мендами бор гуноҳ дея мунгга ботдим,
Тингламабман бошни эгиб, ҳуш йўқотдим.
Осмонни даст кўтартгандек үтирибман,
Ночор жинсга мансублигим заҳрин тотдим.

Қўйгили, жоним, бу гаплардан не наф ютдик,
Фифон чеккан кенг дунёни биз унутдик.
Биз иккимиз нега үнга «сифмас» бўлиб,
Манов юртдан тогувликни интиқ кутдик...

ЖЕЛТҮҚСОННИНГ⁶ ОЛОВИ

Желтүқсонда эрк құшиғин
куйламоққа чарх урдинг,
Желтүқсонда әгаман
эл бұлмоққа талпиндинг.
Жисминг узра ҳамон силқиб
турап ўша яралар,
Айналайин, навқирон куч,
ёш авлоди халқимнинг.
Темир құллар метин эди
жалқумингга соглан чанг,
Номус-оринг йиқмай ўтдинг
телба бұхтон кунидан.
Танқо қолган чоғларимда
құвват олдим жиссимінга,
Турма түрін ёриб чиққан
сенинг қайсар унингдан.
Үсар әлнинг ҳар қандай он
бирлик бұлар танлови,
Ловулла, желтүқсоннинг
музга ёққан олови!
Сизлар каби ор-номусли ёш
авлоди бор әлнинг
Эгилмоққа таалуққа
бұлмас ҳеч дам ялови!

⁶ Желтүқсон – муаллиф 1986 йилнинг желтүқсони, яъни декабрида озодлик учун бош күттарған ёшларни назарда тутмоқда (*таъқид таржимонники*).

НУРЛАН ҮРОЗАЛИН
(1947)

ОНА ЮРТИМ

Онамдайин азиздурсан, юртим, манга,
муҳаббатинг сут-ла кирган жону танга.
Митти чоғдан уйғонгандир сенга ҳурмат,
қанот бердинг, парвоз бердинг илк үланга.

Умр асли йўлдир ўтган қир, сой, ўйдан,
ҳалол ризқим тергум насиб этган ўйдан.
Бошқачадир менга меҳру илтифотинг,
дастурхонсан сахий онам ёйиб қўйган.

Юргум доим илҳоминг-ла тўлиб-тошиб,
сенинг билан юксакликка чин ёндошиб.
Жўшқин ҳаёт уммонида сузсам сокин,
чагалайдек чарх ураман нур талошиб.

Қамишлар ҳам кўл сахнида тушар рақс,
гала оққув сув юзида этар акс.
Нафосатни, сулувликни кўриб сенда,
соғинч билан талпинганда жўшади ҳис.

Юрак армон
билан уриб, қийналса жон,
тунлар юрсам юлдузлардек жим, паришон,
ҳақиқатни излаб маъюс бўлганимда
вужудимда шеър бошлайди бедор туғён.

У чоғлари
самоларга ёзиб қанот,
юксаламан тонгларингдан сингиб сабот.
Үйғонади тоғларингда шалолалар,
жисмимдаги түйфу олди фуурп деб от.

Қайғу чексам айнан сенинг үзингдурман,
кувонганда кулиб айтган сүзингдурман.
Сен бўлмасанг не қиласдим фазоларда,
кенг оламни кўрган равшан кўзингдурман.

О, она юрт, толеимсан, номус, орим,
садоқатим мадҳи бўлгай шеър, ашъорим.
Бутун вужуд, юрагим-ла севдим сени,
бу дунёда суюнчиғим гул диёрим!



УЛУФБЕК ЭСДАВЛЕТ (1954)

ТАВАЛЛУД КУНИ

Дастурхонда барча неъмат муҳайё,
Онахоннинг чеҳрасида нур, ҳаё,
Аммо кўнглин хиёл шубҳа қамраган,
Кутган меҳмон келмай қолармикан ё.

Туғилган кун.
Бирор меҳмон келмади,
Кекса юрак завқу шавққа тўлмади.
Эшик томон қадаб маҳзун нигоҳин,
Тор кулбада жим ўтириди, кулмади.

Кутиш оғир, ҳаво бироз дим эди,
Хонасида ёлғизлик ҳоким эди.
«Кел-май-ди!» деб соат аста чиқиллар,
Телефон-чи, тошбақадек жим эди.

Уйдан чиқди...
Ой нурини сочар мўл,
Пойларига ифор сочар ҳар бир гул.
Ипакдайин майин кўклам ҳавоси,
Қушлар сайраб, тасаннолар айтар ел.

Қутлагандек шохларини силкитди,
Олма умид каби оппоқ гул тутди.
«Қутлуғ бўлсин, таваллудинг, онажон!»
Деган каби булоқ жилдирай кетди.

Юлдузлар ҳам нур сочдилар осмонга,
Манглай үпіб, табрик айтиб инсонга.
Еши улуғ она хурсанд бұлди-ю,
Гүё қучоқ очди азиз меҳмонга...



**ЭСОНҒАЛИ РАВШАН
(1957)**

ҚОРАБОВУР ҚАШҚАЛДОҚ

Қорабовур қашқалдоқ,
қайга учдинг бу кезлар,
Хазин ноланг қулоқда
янграб дилимни эзар.

Қорабовур қашқалдоқ,
қайт орқангга, учиб кел,
Холин сўра тўқайнинг,
кўз ёшлари бўлмиш сел.

Уянг қолса беэга зулмат
бўлар ойдин тун,
Дайди қушлар додидан
кўкраги чок, бағри хун.

Ўзингники бил бизнинг тоғлар,
қирлар бағрини,
Ўз инингни ўзгаларга ташлаб
кетсанг, тўғрими?

Қашқалдоғим, қайт, ортга!

Qozonning qiziqi va mazmuni bo'lgan bu shaxsiyotlarning qurʼoniy qurʼoniylari. Ushbu shaxsiyotlarning qurʼoniylari qiziqi va mazmuni bo'lgan shaxsiyotlarning qurʼoniylari.



QOZOQNING QIRQ OQINIDAN QIRQ O'LAN



She'rlar

KO'NGILDAGI QIRQ QO'SHIQ

O'zbek-qozoq adabiy aloqalari haqida so'z ketganda, biz, avvalo, ikki xalqning tarixiy ildizi birligini aytishimiz kerak. Qadim-qadimdan bu ikki xalq yonma-yon yashab, bir daryodan suv ichib, bir yaylovda chorvachilik qilganlar. Bir so'z bilan aytganda tutash taqdirli xalq. G'afur G'ulom yozganidek: «Ikki boshga bir manglayday yarqiroq taqdirimiz».

Keyingi vaqtarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev tashabbuslari bilan adabiy-madaniy aloqalarimiz yanada jadallik bilan rivojlanmoqda. Shu yil 15-mart kuni Ostona shahrida «Astana operasi» teatrida 2018-yil Qozog'istonda «O'zbekiston yili» deya e'lon qilindi. 2019-yil O'zbekiston Respublikasida «Qozog'iston Respublikasi yili» deb ataladi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo'noboyev ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish to'g'risida» Qarori har ikki xalqni biday sevintirdi. Bu o'zbek xalqining qozoq xalqiga, adabiyotiga bo'lgan hurmatining yorqin dalilidir. Shu munosabat bilan Qozog'istonda o'zbek va qozoq ijodkorlari hamkorligida mushoiralar, adabiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Yaqindagina 27-28-mart kunlari Janubiy Qozog'iston viloyatining Chimkent va Turkiston shaharlarida bir necha adabiy anjumanlar o'tkazildi. Turkistonda Sohibqiron Amir Temurning 682 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.

Aytish mumkinki, 2018-yildan boshlab o'zbek-qozoq adabiy-madaniy aloqalari yangidan jadal rivojlanish yo'liga chiqdi.

O'zbek-qozoq adabiy aloqalari deganda biz, avvalo, Abay Qo'nonboyevning Navoiy ijodiga bo'lgan hurmatini, Navoiyni o'ziga ustoz deb bilgani yodimizga keladi.

*Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy,
Navoiy, Sa'diy, Firdavsiy,
Xo'ja Hofiz – Siz hammangiz,
Madad bering, qilmang osiy!*

Bu silsilani davom ettirgan G'afur G'ulom va Sobit Muqonov, Oybek va Muxtor Avezov, Mirtemir va Abdulla Tojiboyev, Zulfiya va Tursunxon Abdurahmonova, Jumaniyoz Jabborov va Sirboy Mavlonovlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Qozoq adabiyotini o'zbek kitobxonlari o'rtasida mashhur bo'lishida Zumrad, Nosir Fozilov, Sa'dulla Siyoyev, Mirpo'lat Mirzo, Mehmonqul Islomqulov va boshqa ko'pgina tarjimonlar xizmatini alohida ta'kidlashimiz kerak. Bular qatoriga Yangiboy Qo'chqorov ham qo'shildi. Uning tarjimasidagi «Qozoqning qirq oqinidan qirq o'l'an» she'rlar to'plami qozoq yozma adabiyotining tamal toshini qo'ygan Abay Qo'nonboyev dan boshlab shu kungacha yashab ijod etgan va shu kunda ham ijodda davom etayotgan qirq oqinining asarlaridan namunalar jamlangan. Bu to'plamning yangiligi M. Dulatov, B. Maylin, M. Hakimjonova, Q. Shang'itboyev, T. Berdiyorov, Y. Ibrohimov va boshqa asarlari o'zbek kitobxoniga birinchi marta taqdim qilinayotgan ijodkorlar ham bor. To'plamdagagi she'rlar mavzu jihatdan rang-barang. Kitobda Vatan, millat qayg'usi bitilgan satrlar bilan birga, tabiat, muhabbat va qozoq xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan aytishuv shaklidagi she'flarning berilishi ixcham kitobda keng qamrovli qozoq she'riyati haqida to'liqroq tasavvur uyg'otish yo'lidagi intilishdir.

Shokarim Qudoyberdiyevning quyidagi satrlari butun ijodkorlarning dilidagi gapdek. Ayni paytda xalq g'amini aks ettirgan satrlardir:

*Men ketarman, ortimda so'z, sozim qolar,
Keyin kelgan avlod undan bahra olar.
Birisi jo'n, birisi zid aytibdi deb,
Bahslashib bilganinchha singa solar.*

Yoki Mirjaqip Dulatovning «Elim-ov» she'ridagi quyidagi satrlarda xalqi uchun yongan shoirning yuragi ko'rinish turibdi:

*Moziy – sarob, istiqboling mavhum, tor,
Etga o'chsan qizarganga ko'p xumor,
Saqlan degan so'zni uqqan qayda bor,
Qarmoq, yemga chopma uncha, elim-ov!*

Mana shunday ruh Ahmad Boytursunov singari otashnafas shoirlarning she'rlarida ham balqib turganini sezamiz:

*Yoddan chiqsa tegdi deya luqma taom,
Bo'lmaydimi yeganimning bari harom.
Inson bo'lib, insonga xos ish qilmasdan,
So'nggi damda nechuk olgum go'rda orom?*

Yuqoridagi tarjimalarda mutarjim she'r ohangini, mazmunini to'liq berishga harakat qiladi. «Singa solar» ifodasining o'zi ag'daruvchi she'r mohiyatini anglab tarjima qilganini ko'rsatib turibdi.

Maryam Hakimjonovaning tabiat manzaralari tavrangan quyidagi she'rida qozoq yozma adabiyotining xalq og'zaki ijodi bilan qanchalik hamohangligini his qilamiz:

*Qiyalikda qizil gul
Nima qilib turibdi.
Barglarida oftobning
Nuri kulib turibdi.*

Jo'bon Mo'dog'aliyev, Umar Shipin, Mag'jon Jumaboyev, Sultonmahmud To'rayg'irov, Saken Sayfullin, Beyimbet Maylin kabi shoirlarning yangi tarjima qilin-gan she'rлarida millat, yurt tashvishini chekish ustuvorligi ko'rinib turadi. Masalan, Jo'bon Mo'dog'aliyev misralariga qulq soling:

*Men qozoqman ming bor o'lib, ming tirilgan,
Yuragimdan tanib, tilga mungni ilgan.
Yig'laganda qalb tutilib quyosh kabi,
Quvonganda kulgim ko'rib tun tirilgan.*

To'plamga tarjimalari kiritilgan Dixan Abilov, Abdulla Tojiboyev, Tursunxon Abdurahmonova, Sirboy Mavlonov, O'ljas Sulaymonov, Fariza O'ng'orsinova, Nurlan O'rozalin, Ulug'bek Esdavlat va boshqa shoirlar ijodi uchun xarakterli bo'lgan she'rлar tanlangan.

Qozoq she'riyatidan yangi namunalarning o'zbek tilida nashr qilinishi, o'zbek she'rxonlari uchun yaxshigina tuhfa bo'libgina qolmay, qozoq she'riyati bilan tanishtirishda va ikki xalq o'rtasidagi adabiy aloqalarni yaqinlashtirishda dadil qadam bo'ladi deb o'yaymiz. Tarjimon Yangiboy Qo'chqorov ko'p yillardan buyon tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgani tarjimalarning muvaffaqiyatli chiqishiga omil bo'lgan.

Adhambek ALIMBEKOV,
*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi xalqaro adabiy
aloqalar va badiiy tarjima bo'limi mas'ul kotibi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent..*

ABAY QO'NONBOYEV
(1845 – 1904)

ILM TOPMAY MAQTANMA...

Ilm topmay maqtanma,
O'rning topmay boplanma,
Huzur tortib shodlanma,
Chuv tushib yot kulgiga.
Besh narsadan qochiq bo'l,
Besh narsaga oshiq bo'l,
Inson bo'lay desangiz.
Maqsad, umring oldingda,
Uni deb g'am yesangiz.
G'iybat, yolg'on, maqtanmoq,
Tanballig-u mol sochmoq –
Besh yovingiz bilsangiz.
Hunar, mehnat, teran o'y,
Qanoat, rahm, o'ylab qo'y –
Besh asl ish, ko'nsangiz.
Yomonlikka nafratni,
Vazmin dildan tiysangiz.
Yaxshilikka ibratni,
O'yingizga yig'sangiz.
Olim bo'lmay ne bo'lur,
Balalikdan so'rsangiz.
Bo'lmasang ham intilgil,
Bir olimni ko'rsangiz.
Undoq bo'lmoq qayda deb,
Aytma ilm suysangiz.
Sizga bilim kim berar,
Yonmay turib so'nsangiz?

Dunyo, mol kelar o'zi,
Bilimga qalb bersangiz.
Bilganlarning so'ziga
Muhabbat-la kirsangiz.
Aqlingizga ishoning,
Bir ishga duch kelsangiz.
Oqsoqol, boymi aytdi,
Kim bo'lsin, mayli, aytdi,
Idrok bilan yengsangiz.
Nodonlarga bo'y berma,
Chin so'z bilan o'sangiz.
Oyat, hadis emas-ku,
Kofir bo'lding demas-ku,
Qanchalar zid kelsangiz.
Ayon aytma ko'p joyda,
Bizning gapga kirsangiz.
Buni yozgan kishining
Ismin emas, so'zin bil.
Bu yolg'onchi dunyodan
O'tdi ko'p chechan bulbul,
Ko'p sarbon minib duldul.
So'z ma'nosin bilsangiz,
Aql - mezon, o'lchov qil,
Agar egri ko'rinsa,
Mayli, tashla, mayli, kul,
Agar tuzuk ko'rinsa,
Ko'p o'ylab quloqqa il.
Aqli oz, ahmoq ko'p,
Dema ko'pning so'zi bul.
Yaqin so'zi totli deb,
Yaqin aytdi demagin.
Nodon bo'lib aytsa kim,
Noshud gapga kirmagin.

Sizga aytgum, xavfim – bul
O'zing uchun o'rgansang,
Yomonlikdan jirkansang,
Ochilursan yilma-yil,
Birov uchun o'rgansang,
Birov bilmas, sen bilsang,
Bilganing bari – tul.
So'zga qarab kishi ol,
Unga qarab so'z olma.
Chin so'z qaysi bilolmay,
Har nedan quruq qolma.
Buni bilib yozgan qul –
Luqmoni Hakimdir bil,
Shunday depti ul donish,
So'zin o'qib, qilgin ish,
Tez bilib, tez yo'ymagil,
Navqiron chog' ko'ngil – gul.



JAMBUL JABAYEV
(1846 – 1945)

OYKUMUSH BILAN AYTISHUV

Jambul:

Atayin ot terlatib keldim to'yga,
Oykumush, avvaldanoq kelding o'yga.
Hovuri bosilmagan chapdast edim,
Oshiqib aytganimga ayb qo'yma!

Oykumush:

Halloslabsan ha degandan so'rashmasdan,
Odobni o'rganmabsan, Jambul, yoshdan,
Arshdag'i aslga ham qo'l yetmasmi,
Aql bilan qimirlasang sal shoshmasdan.

Jambul:

Oykumush, shoshmaslikka chama bormi,
O'smirlik urintirdi talay yorga.
Seni deb yotsam, tursam tinchim yo'qdir,
Yem bo'lib ketarmi deb yomonlarga.

Oykumush:

Bilarmi sho'rlik banda o'z kamini,
El kezib o'tkazarkan har damini.
Yot yurt uchun yaralgan urg'ochimiz,
Men uchun axtarma dil malhamini.

Jambul:

Borarsan bir yomonga o'zing xo'r bo'lib,
O'tiribsan qarqaraday hozir zo'r bo'lib.

Ko'zingga ko'k chivinni shamg'alatgay,
Ko'rganing o'la-olguncha nuqul sho'r bo'lib.

Oykumush:

Jambul-ov, kuyinasan nega buncha,
Qutqargandek ko'p qizni guldan g'uncha.
Qo'lдagi qarchig'ayni nega yo'yding,
Dunyoning tizginini tutsang shuncha?

Jambul:

Yolg'onning sho'ridir qiz bilan yigit,
Yurmagan o'ynab-kulib biror mavrid.
Orini bosolmagan orsiz ko'ngil,
Yana kutib o'tiribdi sizdan umid.

Oykumush:

Yigitga ko'ringaydir umid yengil,
Yolchimas o'shal xulqqa ko'ngan ko'ngil.
Yorqinim, qon tomiring ne deb urar,
Har nen teravermay, rostni degil.

Jambul:

Tuya emas, to'qqiz emas, tilaganim,
Yupatmagay zor ko'nglingni bu o'lanim.
Bo'lmasang so'zga nochor, ichdan o'jar,
Sezarding sirim hatto o'tirsam jim.

Oykumush:

Jambul-ov, jon ekansan so'zga no'noq,
Qay xulqim noma'quldir senga bu choq?
Sen didingni yashirmasdan aytavergin,
Mendan talab bo'lsa aytgin ochig'roq.

Jambul:

Ovulim yaylov tutgan Oqsungirni,
Ko'z suzdim siz tomonga tomir urdi.
Qo'limga bir ushlatsang tushungaysan,
Do'mpaygan to'shingdagi o'tangurni.

Oykumush:

Jambul-ov, ushlatmayman, ayb qo'yma,
Ketayin qaytib ordan ushbu to'yda.
«Yaxshi so'z – jon ozig'i» degan bor-ku,
Odobli xulqing doim yursin o'yda.

Jambul:

Oykumush, ilojim yo'q, xayr, xush qol,
Ketaylik sir bildirmay yotlar misol.
Ismingni, oq yuzingni unutmasman,
Vujudimda o't so'nguncha, sohibjamol...



SHOKARIM QUDOYBERDIYEV
(1858 – 1931)

**MEN KETARMAN, ORTIMDA SO'Z,
SOZIM QOLAR**

Men ketarmان, ortimda so'z, sozim qolar,
Keyin kelgan avlod undan bahra olar.
Birisi jo'n, birisi zid aytibdi deb,
Bahslashib bilganincha singa solar.

Tabiatda o'tganlarga bordir sinov,
Yomon uchun nafrat, yaxshi uchun siylov.
O'lib ketgach dalillashga bormas tilim,
Tirik chog'im afzal erur buni so'ylov.

Birovlarni sinash qiyin bilib-bilmay,
Umrining qoq o'rtasinda ko'zga ilmay.
Yelkasida yuki og'ir yo'lovchini
Yo'l chetida ko'rsang o'tgin mazax qilmay.

Qayiq bilan dengiz kezdim og'ir kunda,
Girdob bo'ldi jadal to'lqin qora tunda.
Zamonani zamonaga qo'sholmasak,
Shul qayiqqa o'tiraylik sen-da, men-da.

Doya topmay kesganman o'z kindigimni,
Zo'rg'a ochdim tor ungurdan tuynugimni.
Umr surgan joyimni gar tugal uqsang,
Shunda aniq biladursan kimligimni.

**AHMAD BOYTURSUNOV
(1872 – 1937)**

ONAMGA XAT

Qarog'im-ov, duogo'yim, g'amxo'r onam,
Bag'ishlab xat yozayin deb tutdim qalam.
Seni unda, meni bunda saqlab omon,
Ko'rishgani nasib etgay Haq Taolom!

Borolmasdan o'tirikchi bo'lib obdon,
Semeyning kir turmasinda bolang bu on.
Mol o'g'irlash yo qotillik aybi yo'qdir,
Chora ham yo'q – sultanat bu zo'r hukmron.

Bor «Noumid shayton erur!» degan so'z ham,
Yo'llar ko'pdir jannatga-da taram-taram.
O'qqa uchib o'n uchimda, o'yga tolib,
Yuragimda bordir bitmay qolgan yaram.

Yoddan chiqsa tegdi deya luqma taom,
Bo'lmaydimi yeganimning bari harom.
Inson bo'lib, insonga xos ish qilmasdan,
So'nggi damda nechuk olgum go'rda orom?

Ko'p aytmasdan, qisqasidan anglatguvchi
Farzandingning kamgap xulqi senga ayon.
Ketar deya «Suvga cho'kib, o'tga tushib»,
Mening uchun g'am chekmagin, qiynama jon.

O'tiribman avaxtaning bo'lmasinda,
Buyruqsiz ko'z yetmoqdadir o'lmasimga.

Eshigining qulfi mahkam, posbon bisyor,
Azroildan boshqa hech kim kelmasiga.

Qalam bilan lavhulmahfuz⁷ unutganmi
Yozmabdi-ku bu hujraga kelishimni.
Qamg'oq bilan salmog'i teng zamon, bildim –
Iloj yo'q chog' – yel haydagach yelishimni.

Ravon yelar talay yo'rg'a, talay tulpor,
Bo'yin egib shum taqdirning tizginiga.
Ulardan ham jonim-to'nim ardoqlimi,
O'rinsiz g'am, iztirobga tushdim nega?!



⁷ Lavhulmahfuz – odam qismati yoziluvchi ilmiy xat.

UMAR SHIPIN
(1879 – 1963)

OMONGELDI

(Dostondan parcha)

To'yliqirda yoviga,
Botir so'zin boshladi,
Hovliqmasdan, oshiqmay,
Qadamin keng tashladi.
Hujum boshlab, bong urdi,
Qistab uchqur qashqani.
Ko'rindi bu chorlovga
Sarboz seldek shoshgani.
Oqmırzanıng ko'linda
Qoldi qancha do'stlari.
O'n to'qqizdan o'ttiz bir –
Qolmay elning yoshlari.
Sovut kiyib saylangan
Er qo'shinga aytgani:
Buzing qamishdek burab,
Qo'rg'on qopqog'in, qani.
Qahrlansak metin qo'l
Toshni qiladi kukun.
Jasur yoshlар maydonga
Chiqinglar elim uchun.
Otlanaman deganlar,
Qo'l chiqaring bir yengdan.
Xalqning g'amin yeganlar,
Ikki ishga bersang tan,
Biring ayblab biringni,

Sendan bo'ldi demanglar...
Er boshiga kun tug'sa,
Etik bilan suv kechar.
Ot boshiga kun tug'sa,
Suvliq bilan suv ichar.
Ovul boshi qiy-chuvga,
Maydon qonga belandi.
Hurlikni orzu qilgan
Boshlar dorga boylandi...
O'q changitib miltiqdan
Qiyrataylik dushmanni.
Tarix tug'yon-la jildi
Eshik bilan to'ridan.
Qamishdan ko'prik quring,
«To'ken»ning qir, ko'lidan.
Ko'lning barin jilovlab,
Tezda kirishib ishga.
«Suvyorg'on»dan jon qolmay,
O'roq soldik qamishga.
Ulov bilan tashigach,
Qotgan yerdan chang uchdi.
Boylarning to'q norlari
Yaqin qildi olisni.
Yog'och tashib ko'rfa'dan
Biyobonda tortishdik.
Oyoq yetgan yerdagi
Qamishni xalq tovishdi⁸.
El bitkazdi ko'prikni
Orni, nomusni oqlab.
Tong xo'rozi qichqirgach,
O'tdi qo'shin tortib saf.
Yuzlaridan yel suyub,
Otning yolin tebratdi.

⁸ Tovishdi – o'rib tugatdi.

MIRJAQIP DULATOV

(1885 – 1935)

ELIM-OV

Darmon topmay dardingga men ertadan,
Shul iztirob yuragimni o'rtagan,
Qilt etmaysan bosh ko'tarib ko'rpadan,
Qadding nega egik buncha, elim-ov?

Moziy – sarob, istiqboling mavhum, tor,
Etga o'chsan qizarganga ko'p xumor,
Saqlan degan so'zni uqqan qayda bor,
Qarmoq, yemga chopma uncha, elim-ov!

Qanday eding, qara ortga qayrilib,
Turibsan-ku ko'p bisotdan ayrilib,
Munkillabsan, qo'shquanoting mayrilib,
O'ksib, yig'lab o'gay ulcha, elim-ov!

Buni mo'rt, bo'sh o'lan desang, o'zing bil,
Yurt bo'lmayman, o'lgum desang, o'zing bil,
Ne bo'lsa ham ko'ngum desang, o'zing bil,
Ostonada yurgan qulcha, elim-ov!

Tuzalasan yurtim qachon yo'l solib?
Tildan kechsang, ketmaysanmi, yo'qolib?
Qaytar eding o'tgan davron ort qolib,
Yorug' yuz-la bo'yning bur-chi, elim-ov!

Shuni ko'rsam ushalgaydir armonim,
Yo'qlamasdim o'zga tilak, qolganin.
Yurakda yo'q zig'ircha ham yolg'onim,
Shu xulqingda mangu tur-chi, elim-ov!



MAG'JON JUMABOYEV
(1893 – 1938)

SOG'INDIM

Avaxtada oydan, kundan yanglishib,
Sarg'aydim-ku, sardalamni⁹ sog'indim.
«Qorachug'im, qulunim», – deb oh urgan
Olisdagi xor onamni sog'indim.

Oltin Oftob, qora yerni sog'indim,
Jon yo'ldoshim – jadal yelni sog'indim.
Asov toydek erkalatib o'stirgan –
Qarindoshni, tuqqan elni sog'indim...

Bo'stonliqda o'tgan kunni sog'indim,
Yeldek esib ketgan kunni sog'indim.
Yil qushidek uchsam, qo'nsam bemalol,
O'ylaganga yetgan kunni sog'indim.

O'yini bir qurdoshlarni sog'indim,
Tilagi bir yo'ldoshlarni sog'indim.
Kelajakka birga rejalar tuzgan –
Sirlashguvchi jon do'stlarni sog'indim.

Zardob to'ldi yosh yurakka, toliqdim,
Tanish tovush ohangiga zoriqdim.
Ne deyish va ne ishlashni bilmasdan
Xo'ri bo'ldim ozod yurgan xalqning.

Yuragimga yaqin jonni sog'indim,
Ipak xulqli, hur jononni sog'indim.

⁹ Sardala – bepoyon dasht.

Otar chog'i kunchiqardan oqarib,
Oq ipakdek shaffof tongni sog'indim.

Ne ko'rsam ham qavmim uchun ko'rganim,
Menga sharaf elim uchun o'lganim.
Men o'sam ham qavmim o'lmas, yashnagay,
Ishlasinlar qo'llaridan kelganin!

Qalin elim, qalin qora emanim,
G'ayrati mo'l, haybatli er polvonim.
O'zi kulgay, siring berma, sabr qil,
Ahmoqlar hech payqaganmi imkonin.

Qozog'imni, qalin elni sog'indim,
Sariqorqam – sayron yerni sog'indim.
Bol buloqli, tiniq, kumush mavjli –
Shimoldagi oydin ko'lni sog'indim.

Quvonganda «Hey, senimi!» deganlar,
Kuyingan chog' men uchun g'am yeganlar.
Xalos bo'lmoq qiyin, qadam anduhli,
Tizib qo'yib ertangni kech qilganlar.

Tangrim Egam, o'zing olgin panangga,
Toshbag'irlar zorga qulq solarma?!

Bolasidan tutqun bo'lib sarg'aygan,
Kim yetkazar salomimni onamga?

Avaxtada oydan, kundan yanglishib,
Sarg'aydim-ku, sardalamni sog'indim.
«Qorachug'im, qulunim», – deb oh urgan
Olisdagi xor onamni sog'indim!

SULTONMAHMUD TO'RAYG'IROV
(1893 – 1920)

ILIQ TUN

Yoz oqshomi, yorug' oyli, mayin shamol,
Toza havo yutmoq rohat yegandek bol.
Suluv yulduz jimir-jimir chorlagandek
Ko'r kam nurning shu'lasiga nigohni sol.
Oltin oy bu to'lib turgan keng do'ngalak,
Nur sejadi yer yuziga ko'kka o'rlab.
Yulduzlar ham turgani yo'q ma'yus boqib,
Oy shu'lasin kuchaytirar qaddin tiklab.
Movi y havo, tiniq osmon ayni ipak,
Ko'rgan zotda o'sar ko'ngil, o'y va tilak.
Oy og'ushi, ko'k samoning quchog'ida,
Pichirlashib sirlashadi sevgan yurak.
Taralar gul-chechaklardan yoqimli is,
Yashil barglar chayqalgan chog' toshadi his.
Suyuklini quchoqlab jim kezsang o'rmon,
Baxt toparsan, jonung esa chin osoyish.
U yer asli suv sohili bo'lsa qani?!

Uzoq yurgach, dil mehrga to'lsa qani?!

Osmondan oy shu'lesi tik tushgan mahal,
Oq tomoqdan boshlangan bol bo'sa qani.
Ketmas o'shal tun surati esdan hech choq,
Bunday sevgi, muhabbat bu – so'nmas chiroq.
Qartayib go'r eshidiga tursang hamki,
«Vo-darig» deb aytdiradi vasl-u firoq.

Saken SAYFULLIN
(1894 – 1938)

MAY OYIDA

I

May oyida ajoyib
Bulutli ko'k, guldurak.
Mehr yomg'iri quyib,
Chiroy ochdi tevarak.
Yerga tushib qizil kun
Dunyo yashnab, ruh kirib.
O'ynar bir to'p o'spirin
Shodon sakrab, yugurib,
Simirib sof havoni
Orom olar keng ko'krak.
Qush kuyiga kuy qo'shib,
Shodlanadi yosh yurak.

II

May oyida eng ajib
Rangga tog', o'rmon kirdi.
Qahrli qish chekinib
Yer yuziga jon kirdi.
Yaproq, gulga burkanib
Daraxtlarga son kirdi.
Qushlar sayrab erta-kech
Borliqqa zabon kirdi.
Barg, maysa, qizg'aldoqqa
Yomg'irdan darmon kirdi.

Kapalak, ari guldan
Bol axtargan on kirdi.

СОВЕТ АЗИЯНИЙ
1900-1970

III

May oyida g'aroyib
Behisht dunyo yayradi.
Boychechak hid taratib,
Lochin qushlar sayradi.
Yosh yurakning birinchi
Muhabbati qaynadi.
Uchrashmoqqa ilk bor
Oshiqlar ahd ayladi.



BEYIMBET MAYLIN
(1894 – 1938)

GADOYGA

Sening zoring – zorlanganim umrga,
Sening oring – muhrlangan ko'ngilga.
Sen ne ko'rsang, men ham shuni ko'rgayman,
Bel bog'ladim – og'ir bilan yengilga.
Sen yig'lasang – ko'zdan yoshim tomchilar,
Sen quvonsang – qo'zdan namim artilar.
Ayt o'lanni keng dalani yangratib,
Kecha yurgan qo'ychivon-u molchilar!..



SOBIT MUQONOV
(1900 – 1973)

SULUVSOCH

(Dostondan parcha)

Boy bo'lgandir mol-mulki mo'l Tilovberdi,
Boylık bilan boshqardi u butkul elni.
To'rt tomonga mol yoyilsa qurtdek qaynab,
Qumursqadek qoplar edi barcha yerni.

To'riq qashqa, g'ozmo'yinli yilqilarin
Ikki-uch ming boshdan bo'lib qo'shga berdi.
Tuyalari qirlarida bo'ta tug'ib,
Qo'yи kezgan joylaridan qo'zi terdi.

Tilovberdi yosh chog'idan yigit yig'di,
To'qson turli ipak, baxmal kiyim kiyidi.
Burgut, tozi qo'linda juft-juftdan bo'lib,
Qashqir, tulki, kiyiklarni tog'dek uydi.

Yosh chog'inda qiz axtarib kezdi elni,
O'z bo'yiga loyig'ini, ya'ni tengni.
Ming yilqidan kam bo'limgan qalin berib,
Oltinoydek parizodni olgan edi.

Ikki-uch yil o'tgach o'ktam Tilovberdi,
Oltinoydan to'ng'ich farzand – bir qiz ko'rdi.
Suluvssoch deb ismin qo'yib, yosh-yalang va
Elni to'plab gumbirlatib zo'r to'y berdi.

O'n oltiga kelganida qizning yoshi,
Tizzasiga tushgan edi o'rim sochi.
Qalam bilan qora chiziq tortgan misol,
Qiyilgandi quralaydek qiyg'och qoshi.

Suluvsochtning o'zgani hech suygisi yo'q,
Oltoyidan boshqa o'tda kuygisi yo'q.
Duch kelganda qay janobga ko'z solsa ham
Qiyoslashda Oltoyga teng qo'ygisi yo'q.

Oltoyining shirin tili bulbulga xos,
So'zlaganda moydek mayin, suyagi yo'q.
Tangri misol sig'ingani tanho Oltoy,
Shu yigittan ortiq biror kiyali¹⁰ yo'q.

Oltoyini ko'rmagandi ko'pdan buyon,
Yuragiga sog'inch to'lib urdi tug'yon.
Yaylov larga yilqi haydab ketgan Oltoy,
Yil bo'lsa ham, yurar elga qaytmay hamon.

G'o'ch Oltoyning qo'shi yurdi Nuron taraf,
Yilqilarни qishlatmoqqa u yer yarab.
O'shal joyda qulay bo'ldi yozgi qo'nim,
Qo'shi ko'chdi Qulono'tmas yoqqa qarab.

Savr tug'ib, qorning yuzi yupqa muzga
Aylanganda qo'shni olib ko'chdi izga.
Bu atrofda, tevarakda ot yetguvchi
El yo'q edi chorlaguvchi nonga, tuzga.

¹⁰ Kiyali – karomatli.

ANDULLA TOJIBOYEV
(1909 - 1998)

DIX

Qiy
Nim
Barg
Nuri

G'unc
Yelda
Soyasid
Bulbul

Ifor sochi
Ari ko'chi
Xumoridan chiqsin deb,
To'shin ochib turibdi.

Gul o't yoqib turibdi,
Qanot qoqib turibdi.
Qrimning tog'-toshlari
Mamnun boqib turibdi.

Qizil gulim, qizil gul,
Bemahal so'lma deyman.
Oftob tig'i, dovulga
Kul yo qul bo'lma deyman.

EY, MUHABBAT, MR
Ey muhabbat,
Olovsan, qa'
Dedim: s
Bung'

DIXAN ABILOV
(1907 – 2003)

EY, MUHABBAT, MUHABBAT!

Ey muhabbat, muhabbat,
Olovsan, qalbim amri.
Dedim: sensiz dunyo yot,
Bunga guvohdir tangri.

Lazzatingga to'yim yo'q,
Qamrab olding qonimni.
Sensiz yashash o'yim yo'q,
Baxtli et jonimni!



ABDULLA TOJIBOYEV
(1909 – 1998)

* * *

Qani ey do'st, hofiz oshno,
Savolimga javob berib ayt o'lan.
Sal... salgina charaqlagan bu oftob
So'nib qolsa qandoq qilardim?

Qani ey, do'st, aytgin tag'in,
Savolimga javob berib ayt o'lan.
Sal... salgina bizlar yutgan manov yel
Tinib qolsa qandoq qilardim?

Aytgin, tag'in, so'nggi bor ayt,
Savolimga javob berib ayt o'lan.
Sal... salgina yorim meni unutmoqqa
Ko'nib qolsa qandoq qilardim?



QOSIM AMANJO'LOV
(1911 – 1955)

* * *

Eshigingning oldi oqar suv,
Erta bilan turib yosh suluv,
Tiniq suvda yuzlaringni yuv –
Suv yuzida chehram ko'rinar.

Cho'ntagingda oppoq dastro'mol,
Bir chetida mening ismim bor.
Ko'rgin hamda meni esga ol –
Ko'zlarilingda shabnam ko'rinar.



SAG'ING'ALI SEYITOV
(1917 – 2007)

Olisdasan sen mendan,
Cho'zsam qo'lim yetmagay.
Necha bora aytsam ham
Arz-u holim yetmagay.

Olisdasan sen mendan
Olisdasan osmonday.
Yiroqqa ketding go'yo
Qochmoq senga osunday.

Olisdasan sen mendan
Go'yo olis xayol, sas.
Unutgim kelsa hamki
Yoddan chiqarib bo'lmas!



JO'BON MO'LDOG'ALIYEV
(1920 – 1988)

MEN QOZOQMAN

(Dostondan parchalar)

Men qozoqman ming bor o'lib, ming tirlgan,
Yuragimdan tanib, tilga mungni ilgan.
Yig'laganda qalb tutilib quyosh kabi,
Quvonganda kulgim ko'rib tun tirlgan.

Men qozoqman, ajal bilmas onadirman,
Qursog'iga sig'dirgan keng daladirman.
Pok go'dakman, beshigimdan ovoz bergen,
Davrlarning tengdoshiman, donodirman.

Men – yigitman, kurash, singa oshiqqan er,
Vujudimda yuragi bor chin oshiqning.
Yonartog'dek dahshat bilan to'lg'onganda
Burgut bo'lib cho'qqilarga uchib chiqdim.

Yozolmadim, nima qilay, xat bilmadim,
Bildim faqat nayza bilan otning belin.
Ot ustida unutdim chin gadoylikni,
Ot ustida o'sam agar shodman, dedim.

Yetgan emas ilmlarga ziyrakligim,
Sezmaganman uning shuncha kerakligin.
Qolaverdim yog'duga yo'l topolmasdan,
Toshdek bosgach er shiddatin qorong'u tun.

Keyin bildim yerning asli shar ekanin,
O'z o'lchami, o'zin cheki bor ekanin.
Ko'm-ko'k ho'kiz shoxda uni ko'targan deb,
«Barakalla» deb yurganlar kar ekanin.

Men qozoqman ming bor o'lib, ming tirilgan,
Yo'rgagimdan tanib, tilga mungni ilgan.
Yig'laganda qalb tutilib quyosh kabi,
Quvonganda kulgim ko'rib tun tirilgan.

Yoyib qo'ydim sirlarimni do'st oldida,
O't boshida, yaylov, kam-u ko'st oldida,
«Jon yuragi ko'zlaridan ko'ringuvchi
Qozoq, – dedim, – qarshingdagি qo'sh¹¹ oldida!»



¹¹ Qo'sh – qo'nimgoh.

JABBOR UMRBEKOV
(1920 – 2010)

* * *

Ko'p tikildim, ko'p tikildim,
Ko'zing jalg etdi yurakni.
Hadiksirab nega ketding,
Zir titratib ko'krakni.

Jur'at topib so'z aytolmay,
Baxtim bog'lab, ko'p yurdim.
Tog'dan izlab, toshdan topgan –
Sen gulisan umrimning.

Osmondag'i oq yulduzday
Ko'rinasan ko'zimga.
Muhabbatning ontin buzmay,
O'zimga kel, o'zimga!



TURSUNXON ABDURAHMONOVA
(1921 – 2003)

YULDUZ

Yulduzlar ko'pdır ko'kda,
Yulduzlar ko'p yerda ham.
Xush ko'raman ko'krakda
Qalb yulduzdek yongan dam.
Yulduzlar ko'p umrda,
Yulduzlar ko'p o'r-qirda.
Xush ko'raman men biroq
Yonganini ko'ngilda.



SIRBOY MAVLONOV
(1922 – 1993)

* * *

Sening nihol kezingni
Ko'rdim bugun bir qizda.
Sening ohu ko'zingni,
Ko'rdim bugun yulduzda.

Sening marjon yoshingni
Ko'rdim bugun yomg'irda.
Sening erka tovshingni
Tingladim kuz bag'rida.

Sening murg'ak chog'ingni
Aytdi bugun tolbargak.
Sening sho'x qo'shig'ingni
Aytdi bugun bol buloq.

Kechdi tanho kun birga,
Yonimda yo'qdir hech kim.
Bilmadingmi, bildingmi?
Sen bilan uchrashdim jim.

BERXAYR AMANSHIN

(1924 – 1985)

* * *

G'ozlar qaytib borayotir, g'ozlar qaytib,
Qiyquvlashib kuz kelganin qizga aytib.
Qayta kuylab madh etguncha muhabbatni
Ketdilar-ku oshiqlarni xo'b sarg'aytib.
Sarg'aymaydi oshiqlari yaqindagi,
Yozdan issiq yuraklari salqindagi.
Qo'l muzlasa, yuzlar qizib, iliq tunda,
Ko'proq ohu ko'zlar porlab, yaltilladi.
Qalin sochni kuz silaydi sokin palla,
Tun qo'ndoqda oshiqlarga aytar alla.
Ko'ngillarning ko'klam misol toshganini
Tinglayotir tosh burkanib yotgan dala.



* * *

Ko'nglim tumanli edi,
Yel bo'lib quvib ketding.
O'yim gumonli edi,
Qayta umidvor etding.

«Kel!» degan mayin nafas
Eslatdi tong shamolin.
Jonimga berdi orom,
Sog'intirgan jamoling.

Armonli faqir jonin
Dengizday tebratding-ku.
Dilkash deb chaqirganing –
Chin ishonch uyg'otdi-ku!

BURGUT IS'HOQOV

(1924 – 1991)

* * *

Muhabbatning, suyishning
Yo'li ko'pdir, turi ko'p.
O'tga tushib kuyishning
Sifati ko'p, siri ko'p.

Biri uning bolalik
Bozoridan keladi.
Ikkinchisi keksalik
Ozoridan keladi.

Biri – uning o't bo'lib,
Nogoh yonib, lovillar.
Ikkinchisi – dard bo'lib
Taning sekin egallar.

Muhabbatning, suyishning
Yo'li bilan turi ko'p.
Qaysi keldi bilmadim,
Yopishdi-ku biri xo'b.

QUVONDIQ SHANG'ITBOYEV
(1925 – 2001)

ROMANS

Almatining oq tumanli tuninda
Turdik ikki yashil daraxt taginda.
«Sevaman» deb osilganding bo'ynimga,
Qayda, qayda o'shal visol bugunda.

Ayt-chi, oyim, qayda deyman o'shal vaqt,
Topgan misol masrur edim mo'l bir baxt.
Peshonangdan o'pib, bosib bag'rimga,
Ketgan eding tanga quyosh qo'yib naqd.

Ayt, oftobim, qayda, qayda o'shal kez,
Qayda o'shal hayron bo'lgan qora ko'z.
Daraxt ham yo'q, sen ham yo'qsan yonimda,
Xotiramda «Suydim» degan tanho so'z.



TO'QASH BERDIYOROV
(1925 – 1988)

* * *

Sila mening sochimni,
Erkam, seni sog'indim.
Boshimdag'i qirovga
Barmoq urmay ketding jim.

Qo'ygin, jonioq, achchiqni
O'tganni olgin esga.
Silay-silay sochimni
Oqartgan sen emasmi?



**IZTOY MAMBETOV
(1929 – 1974)**

* * *

Uyquga cho'mar onda
Seni o'yladim,
Uyg'onib saharmardonda
Seni o'yladim.
O'ylayverdim
Yursam hamki, o'tirsam hamki,
Meni o'nya solmoq uchun
yaralganmisan?

Chiroyli qiz ko'rganimda
Seni o'yladim,
Bir qiz so'zga kirganida
Seni o'yladim.
Birov qilsa ahd-u paymon,
Seni o'yladim.
Kim aldasa dilda armon,
Seni o'yladim.

O'y surmoqning ma'nosini
o'ylab ko'rmadim,
Mag'zin chaqib, bo'y-bastini
bo'ylab ko'rmadim.
Sening menga tegishli yor
bo'lmasliging ham
Esimga hech kirmabdi-ya ,
ey sarvi qaddim!

* * *

Yildan yilga suluv qizlar boradimi ko'payib,
Suluvlikning gul bog'chasi boradimi kengayib.
Yoki davram yildan yilga boradimi torayib,
Goho uzoq o'tiraman uyda nega mung'ayib?
O'tar kunlar, o'tar yillar yonib bitgan kul bo'lib,
Yildan yilga ko'payadi suluv qizlar gul bo'lib.
Yildan yilga ko'payadi qarindoshlar oq manglay,
Qo'lin silkib menga bari ketib borayotganday...



MUQAG'ALI MAQATAYEV
(1931 – 1976)

* * *

Oshiqman!
Chin oshiqman ul insonga!
Men bo'lmasam bo'lmayin.
O'shal omonmi?
O, Tangrim, qanday jon bu qayrilmaguvchi,
Yuragi etdanmi yo qaysidir jezdan?!

Oshiqman!
Qay yo'sinda yashira olgum,
Oltin erur uning har tola sochi.
Sog'inayin, sob bo'lsam ham, sog'ingaydirman,
Asli sog'inch uchun yaralgan oshiq.

Parvoz qilsam qo'lim yetmas ko'kda kunga,
Ey, oqqanot qushim mening ketganiningmi?
Charx urasan, bor olamni bir aylanib,
Mangu seni izlash bilan o'tganimmi?

Eng za'faron sog'inchimni bosib bo'lib,
Bor umid, bor ishonchimni sochib bo'lib.
Seni deya o'tgayman men bu hayotdan
Ham manguga qolgaydirman oshiq bo'lib.

SHAMIL MUHAMMADJONOV
(1931 – 1980)

* * *

Tumanli tun, sokin tun,
Quchdim seni, suyuklim.
Tug'yon urdi yuragim,
Bor dunyoni unutdim.

Tumanli tun, sokin tun,
Quchdim seni, suyuklim.
Ko'nglimning sof ko'kidan
Nurin to'kdi kulib kun.

Tumanli tun, sokin tun,
Quchdim seni, suyuklim.
Cho'qqisida turibman
Baxt otlig' biyikning.

Mangu bizlar birlashgan,
Yurak to'ng'ich tillashgan.
Chiqarmagin, sevgilim,
Tumanli tunni esdan.

QO'SHJON MUSIREPOV
(1932 – 1967)

* * *

«Sevdim» degan tanho so'zda ulug'lik,
«Sevdim» degan tanho so'zda ilig'lik.
«Sevdim» degan oshiqlarning so'zinda
Dunyoda eng nafislig-u suluqlik.

...Ikki vujud o't bo'lib,
Ikki vujud yonib, kuyib, cho'g' bo'lib.
Ikki vujud chirmashganda betoqat,
Dunyo ko'zdan qochar, ketar yo'q bo'lib.

Nafas to'xtab, mastdir ko'ngil, sarxush bosh,
Bir-birini ko'rmas ikki ko'z-u qosh.
Hayajonli jovdir ko'zdan «tirs» etib,
O'mrovlarga yumalaydi tomchi yosh.

Yurak qurg'ur girdob misol charx urar,
Sabr qurg'ur nigohlarda barq urar.
O'shal damda sehrli so'z, sirli so'z,
Qaynoq nafas bilan balqib aytilar!

Shuning uchun o'shal so'zda ulug'lik,
Shuning uchun o'shal so'zda ilig'lik.
«Sevdim» degan oshiqlarning so'zinda
Dunyoda eng nafislig-u suluqlik!

QODIR MIRZAALIYEV
(1935 – 2011)

Ko'z olmayman uchrashgan bir kezimda,
Sen deganda qanoat yo'q sezgimda.
Osmon bo'lib ketsang hamki sen agar
Qarog'imga joylab olgum,
Ishonaver!

Ko'rmay seni turolmasman uch hafta,
Sen deganda qanoat yo'q quchoqda.
Asqar tog' bo'p ketsang hamki sen agar,
Quchog'imga sig'diraman,
Ishonaver!

Yuz suyishga, ming suyishga erinmam,
Sen deganda qanoat yo'q
Bahri Muhit bo'sang hamki sen agar,
Bir tomchingni qoldirmayman,
Ishonaver!

TUMANBOY MO'LDOG'ALIYEV
(1935 - 2011)

* * *

Qozoq degan xalqning bolasiman,
Bolasiga beradigan bor asilin.
Nuqson ko'rsa qiynguvchi inisida,
Tilin olib o'sadigan og'asining.

Qozoq degan xalqning bolasiman,
Yoqasidan olmaydigan donosining.
Otasining aytganidan chiqmaydigan,
Biror so'zin yiqlaydigan onasining.

Qozoq degan xalqning bolasiman,
Oqi bilan ko'zining qorasiman.
Xalqin maqtab yuradigan har bir joyda,
Urfin saqlab yuradigan bobosining.

Qozoq degan xalqning bolasiman,
Yo'lga tashlab ketmaydigan jon oshig'in.
Singlisini qizi kabi erkatalib,
Ayaydigan guli misol dalasining.

Qozoq degan xalqning bolasiman,
To'y-bazmada e'tiborda sarasiman.
Jon opasin ko'radigan anbiyoday
Unga ochiq aytadigan bor-yo'q sirin.

Qozoq degan xalqning bolasiman,
Tilaydigan ko'ngillarning yarashuvin.

To'y chorlasa oylik yo'ldan keladigan,
Faqt tilga beradigan bor achchig'in.

Qozoq degan xalqning bolasiman,
Oldda qancha dovonlardan bor oshmog'im.
Yurar yo'lim orzu yo'li, baxt yo'li,
Mumkin emas o'shal yo'ldan adashmog'im.

Qozoq degan xalqning bolasiman...



JUMEKEN NAJIMETDINOV
(1935 – 1983)

* * *

Sening soching tun desam
Yanglish tuyg'u ekan-ku.
Kulib turgan kun desam
Sening kulgung ekan-ku.

Shovullagan hur o'rmon
Sening labing ekan-ku.
Suv tutgan chanqagan on
Buloq qalbing ekan-ku.

Yaproqlari gullarning
Mayin kafting ekan-ku.
Peshonangga tushgan nur
Tongning tafti ekan-ku.

Qahrlansa bulutdan
Yomg'ir va qor ekan-ku.
Dunyoning butkul ko'rki
Senda ham bor ekan-ku.

O'LJAS SULAYMONOV

(1936)

BOLALIK KEZ. BOG‘-BOG‘CHA.

OFTOB

Bir muchalga to'lmagandim men hali,
Olis ovul.

Chilla – asad.

Bolalik.

Ko'cha bo'ylab jadal o'tar ot qo'shilgan arava.
Chang bosgan bog'.
Yo'qdir boshqa biror yangilik.

Yotgan chog'i dala – janglar orqasida hansirab,
Bir kelinchak bizning uyda yashab turdi
Hol so'rab,
Miyig'ida kulsa
Qolar edim qizarib,
O'n uch yoshga qadam qo'ygan paytlarim.

O'zi edim tommay ketgan yomg'irning,
O'zi edim esmay o'tgan dovulning.
U buloqda cho'milganda
Quvardim
Nazar solgan buzuqlarin ovulning.

U kulganda yashnab ketar edi qir,
Shuning bari ko'kragimda sayrabdir.

Hamon esda
Derazasin tagida

Turgan edim
Tishlarimni qayrab bir.

U turmushga chiqdi.
To'yi o'tdi. Nikohi o'qilgan tun.
Faqt mening ustimga
Qayg'uning qop-qora buluti tushdi.
Darchadan qaradim. Bagrim bo'ldi xun.
Eri keldi,
U juftining bo'yniga
Osildi-da,
Quchoqlashdi,
O'pishdi.

Birin-birin shom ham tushdi.
Kech o'tdi.
Ayol soldi
O'tdek issiq to'shakni...
Sham o'chdi-yu
Pichir-pichir boshlangach
Derazaga uloqtirdim kesakni!

Mening butkul tinchimni o'g'irlagan
Bu uygami?
Endi uni yelkamning chuqur ko'rsin!
– Sen edingmi? – deb otilib chiqqanida,
– Yengiltaksan, yo'qol! – deb sochdim alam.
Bolalik qursin...

Shu ehtimol ertagimning o'lgani,
Sinib, tinib achchig'im sob bo'lgani.
U erining to'sdi yo'lini,
Qo'llarimga qo'ydi qo'lini,

Kafti qaynoq edi behad.

– Aylanayin, ahmog‘im, – deb. – Ahmog‘im,
Og‘ushiga olib turdi bir fursat.

Og‘ushidan otilib chiqdim,
Olislarga ketdim yugurib.

Men to‘ng‘izman.

Men odamman beo‘xshov,
Endi bu uy mening uchun qo‘ysin g‘ov.
Uyatimni qanday yuvib-chayaman,
Ko‘zlariga qarashga berarmanmi dov?

O‘shal kez ham o‘tdi-ketdi.

Yumib-ochmay ko‘zimni.
Bekitolmay senga bo‘lgan sezgimni.

Hamroh bola ta‘zim uchun egilgan chog‘
Sevgilim,
Qo‘ygani joy topolmayman o‘zimni.

Payqaysanmi,

Shu-ku sening «ahmog‘ing»,

Ranjitmagil,

Bor betidan bir chimchilab
yelkasidan qoqmog‘ing.

Ayamaydi u o‘zining yuragin,

Bolaligin,

Bog‘-bog‘chasin,

Oftobin!

TO'LAGAN AYBERGENOV
(1937 – 1967)

SIR

Qum bosib mung'aygan cho'llarda
Otilib qolgan zil armonday.
Sen yoqda to'qqizga to'lgach oy,
To'xtadi xatlar ham o'rmonday.

To'xtadi xatlar ham martilib
Qanoti qayrilgan kaptardek.
Pardaga tushmasdan chertilib,
Iplari uzilgan tordek.

Tilsimdan to'xtadi jimgina
Bu to'g'rida ogoh ham etmay.
«Yarq» etib ko'zimning uchidan
G'oyib bo'lgan oqshomgi o'tday.

Oshdi chog'i qandaydir chekdan
Vujudimga yuragim asir.
Shundan buyon o'tibdi o'n yil,
Sog'ingan jon uchun o'n asr.

Men bo'lsam yurardim bu chog'lar,
O'ylarimni tizib bir safga.
Go'yoki sotilgan elchidek
Ulov bilan obro', mansabga.

Oramizda qolgan mo'l arshin,
Ketdimi yo tirik o'dirib.

Yo'lga ham otlanding chamasi,
Yog'och tovog'ingni to'ldirib.

Ko'rmayman deb aytgan emasman,
Yetib bo'lmas, cheki yo'q qirlar.
Quydi degan bilan behisob,
Bosildi, shekilli, yomg'irlar.

Beshikdan boshlangan ta'bordan
Bo'larsan butunlay xotirjam.
Bir paytlar ardoqli o'rindan
Bo'sag'a deb uqqan chog'ing ham.

Jonimga azizsan, yaqinman,
Bugun ham yurakdan sizlayman.
Men bo'lsam bir oshiq oqinman,
Ozgina baxtimni izlayman.

Sog'inib bog'larni axtardim
Oqardi tonglarning tovoni.
Ko'pirgan sohilda kemalar
Bog'langan ko'rfazi – gavani.

Balkim, sen bularni or sanab,
Yo'qolding bo'yningda yo'q izday.
Xuftonda tog'larning ortiga
Shu'lasi bekingan yulduzday.

Oldimda tog'larning tizmasi,
Go'yoki dengizning yollari.
Kelmoqda meni ham allalab,
Yumaloq zaminning yo'llari.

FARIZA O'NG'ORSINOVA
(1939 – 2014)

* * *

Ikkov – haqmiz. O'tiribmiz til qotishmay,
Sen Kunchiqish, men-chi go'yo Kunbotishday.
Bu sukunat qancha kunlar etgay davom
Yurardik-ku qayg'u bilan mungga tushmay.

Nega, nega ketdik shuncha olis bo'lib,
So'nib qolgan yurak kabi yanglish bo'lib.
O'tiribsan yigitga xos o'jarliging
Egilishga yo'l bermagan nomus bo'lib.

Mendami bor gunoh deya mungga botdim,
Tinglamabman boshni egib, hush yo'qotdim.
Osmonni dast ko'targandek o'tiribman,
Nochor jinsga mansubligim zahrin totdim.

Qo'ygil, jonim, bu gaplardan ne naf yutdik,
Fig'on chekkan keng dunyoni biz unutdik.
Biz ikkimiz nega unga «sig'mas» bo'lib,
Manov yurtdan totuvlikni intiq kutdik...

**MUXTOR SHAXANOV
(1942)**

JELTO'QSONNING¹² OLOVI

Jelto'qsonda erk qo'shig'in
kuylamoqqa charx urding,
Jelto'qsonda egaman
el bo'lmoqqa talpinding.
Jisming uzra hamon silqib
turar o'sha yaralar,
Aynalayin, navqiron kuch,
yosh avlodи xalqimning.
Temir qo'llar metin edi
halqumingga solgan chang,
Nomus-oring yiqmay o'tding
telba bo'hton kunidan.
Tanho qolgan chog'larimda
quvvat oldim jismimga,
Turma to'rin yorib chiqqan
sening qaysar uningdan.
O'sar elning har qanday on
birlik bo'lar tanlovi,
Lovulla, jelto'qsonning
muzga yoqqan olovi!
Sizlar kabi or-nomusli yosh
avlodи bor elning
Egilmoqqa taalluqli bo'lmas
hech dam yalovi!

¹² Jelto'qson - muallif 1986-yilning jelto'qsoni, ya'ni dekabrida ozodlik uchun bosh ko'targan yoshlarni nazarda tutmoqda (*ta'kid tarjimonники*).

ONA YURTIM

Onamdayin azizdursan, yurtin¹, manga,
muhabbating sut-la kirgan jor¹-u tanga.
Mitti chog'dan uyg'ongandir se²nга hurmat,
qanot berding, parvoz berding ilk o'langa.

Umr asli yo'ldir o'tgan qir, soy, o'ydan,
halol rizqim tergum nasib etga³n uydan.
Boshqachadir menga mehr-u iltifoting,
dasturxonsan saxiy onam yoy⁴b qo'ygan.

Yurgum doim ilhoming-la to'li p-toshib,
sening bilan yuksaklikka chin yondoshib.
Jo'shqin hayot ummonida suz⁵sam sokin,
chag'alaydek charx uraman n⁶ur taloshib.

Qamishlar ham ko'l sahnida tushar raqs,
gala oqquv suv yuzida etar ak⁷.
Nafosatni, suluvlilikni ko'rib se⁸nda,
sog'inch bilan talpinganda jo'shadi his.

Yurak armon
bilan urib, qiyalsal jon,
tunlar yursam yulduzlardek jm, parishon,
haqiqatni izlab ma'yus bo'lgan imda
vujudimda she'r boshlaydi bedor tug'yon.

U chog'lari
samolarga yozib qanot,

yuksalaman tonglaringdan singib sabot.
Uyg'onadi tog'laringda shalolalar,
jismimdagi tuyg'u oldi g'urur deb ot.

Qayg'u cheksam aynan sening o'zingdurman,
quvonganda kulib aytgan so'zingdurman.
Sen bo'lmasang ne qilardim fazolarda,
keng olamni ko'rgan ravshan ko'zingdurman.

O, ona yurt, toleyimsan, nomus, orim,
sadoqatim madhi bo'lgay she'r, ash'orim.
Butun vujud, yuragim-la sevdim seni,
bu dunyoda suyanchig'im gul diyorum!



**ULUG'BEK ESDAVLET
(1954)**

TAVALLUD KUNI

Dasturxonda barcha ne'mat muhayyo,
Onaxonning chehrasida nur, hayo,
Ammo ko'nglin xiyol shubha qamragan,
Kutgan mehmon kelmay qolarmikan yo.

Tug'ilgan kun.
Biror mehmon kelmadi,
Keksa yurak zavq-u shavqqa tolmadi.
Eshik tomon qadab mahzun nigohin,
Tor kulbada jim o'tirdi, kulmadi.

Kutish og'ir, havo biroz dim edi,
Xonasida yolg'izlik hokim edi.
«Kel-may-dil!» deb soat asta chiqillar,
Telefon-chi, toshbaqadek jim edi.

Uydan chiqdi...
Oy nurini sochar mo'l,
Poylariga ifor sochar har bir gul.
Ipakdayin mayin ko'klam havosi,
Qushlar sayrab, tasannolar aytar yel.

Qutlagandek shoxlarini silkitdi,
Olma umid kabi oppoq gul tutdi.
«Qutlug' bo'sin, tavalluding, onajon!»
Degan kabi buloq jildiray ketdi.

Yulduzlar ham nur sochdilar osmonga,
Manglay o'pib, tabrik aytib insonga.
Yoshi ulug' ona xursand bo'ldi-yu,
Go'yo quchoq ochdi aziz mehmonga...



ESONG'ALI RAVSHAN
(1957)

QORABOVUR QASHQALDOQ

Qorabovur qashqaldoq,
 gayga uchding bu kezlar,
Hazin nolang qulqoqda
 yangrab dilimni ezar.

Qorabovur qashqaldoq,
 qayt orqangga, uchib kel,
Holin so'ra to'qayning,
 ko'z yoshlari bo'l mish sel.

Uyang qolsa beega zulmat
 bo'lar oydin tun,
Daydi qushlar dodidan
 ko'kragi chok, bag'ri xun.

O'zingniki bil bizning tog'lar,
 qirlar bag'rini,
O'z iningni o'zgalarga tashlab
 ketsang, to'g'rimi?

Qashqaldog'im, qayt, ortga!

МУНДАРИЖА

Күнгилдаги қирқ қүшик.....	3
<i>Абай Құйнанбоев</i>	
Илм топмай мақтанма....	7
<i>Жамбул Жабаев</i>	
Ойкумуш билан	
айтишув.....	10
<i>Шокарим Кудайбердиев</i>	
Мен кетарман, ортимда	
сүз, созим қолар.....	13
<i>Ахмад Бойтурсынов</i>	
Онамга хат	14
<i>Умар Шипин</i>	
Омонгелди	16
<i>Миржакып Дулатов</i>	
Элим-ов	18
<i>Магжон Жумабоев</i>	
Софиндім	19
<i>Султоңмахмұд Тұрайгиров</i>	
Илиқ тун	21
<i>Сәкен Сайфуллин</i>	
Май ойда	22
<i>Бейімбет Майлін</i>	
Гадойга	24
<i>Собит Мұқанов</i>	
Сулувсоч	25
<i>Марьям Ҳәкимжонова</i>	
«Қиялиқда қызыл гул...»....	27
<i>Дихан Абілов</i>	
Әй, мұхабbat,	
муҳабbat!	28
<i>Абдулла Тоғибоеv</i>	
«Қани әй дүст...».....	29
<i>Қосым Аманжұлов</i>	
«Әшигингнинг одdi...»....	30
<i>Сагинғали Сейитов</i>	
«Олисадасан сен	
мендан...».....	32
<i>Жұбон Мұлдогалиев</i>	
Мен қозоқман	32
<i>Жаббор Умрбеков</i>	
«Күп тикилдим...».....	34
<i>Тұрсынхон Абдурахмонанова</i>	
Юлдуз	35
<i>Сирбай Мағлонов</i>	
«Сенинг ниҳол	
кезингни...».....	36
<i>Берхайр Аманшин</i>	
«Фөзлар қайтиб	
бораётir...».....	37
<i>Абдукарим Ахмедов</i>	
«Күнглім тұманли	
эди...».....	38
<i>Бургут Исхоков</i>	
«Мұхаббатнинг,	
суйишинг...».....	39
<i>Құвондиқ Шанғитбоев</i>	
Романс	40
<i>Тұқаш Бердиёров</i>	
«Сила менинг	
соғимни...».....	41
<i>Изтой Мамбетов</i>	
«Үйқуга чұмар онда...»....	42
<i>Әрғеш Иброхім</i>	
«Йилдан йилга...».....	43
<i>Мұқагали Мақатаев</i>	
«Ошиқман...».....	44
<i>Шамил Мұхаммаджонов</i>	
«Тұманлы тун...».....	45
<i>Құышқон Мусирепов</i>	
«Севдим...»	46
<i>Қодир Мирзаалиев</i>	
«Күз олмайман учрашган	
бир кезимда...».....	47
<i>Тұманбай Мұлдогалиев</i>	
«Қозоқ деган халқ...»	48

<i>Жумекен Нажиметдинов</i>	<i>Maryam Hakimjonova</i>
«Сенинг сочинг...»	«Qiyalikda qizil gul...» 89
<i>Ўлжас Сулаймонов</i>	<i>Dixan Abilov</i>
Болалик кез. Бог-богча.	Ey, muhabbat,
Офтоб	muhabbat! 90
<i>Тўлаган Айбергенов</i>	<i>Abdulla Tojiboev</i>
Сир	«Qani ey do'st...»..... 91
<i>Фариза Ўнгорсунова</i>	<i>Qosim Amanjo'lov</i>
«Икков – ҳақмиз...»	«Eshigingning oldi...»..... 92
<i>Мухтор Шаханов</i>	<i>Sag'ing'ali Seyitov</i>
Желтўқсоннинг олови ...	«Olisdasan sen
<i>Нурлан Урзалин</i>	mendan...» 93
Она юртим.....	<i>Jo'bon Mo'ldog'aliyev</i>
<i>Улугбек Эсдавлет</i>	Men qozoqman..... 94
Таваллуд куни.....	<i>Jabbor Umrbekov</i>
<i>Эсонгали Раевшан</i>	«Ko'p tikildim...» 96
Қорабовур қашқалдоқ ..	<i>Tursunxon Abdurahmonova</i>
62	Yulduz 97
<i>Ko'ngildagi qirq qo'shiq</i>	<i>Sirboy Mavltonov</i>
64	«Sening nihol
<i>Abay Qo'nonboyev</i>	kezingni...» 98
Ilm topmay maqtanma... 68	<i>Berxayr Amanshin</i>
<i>Jambul Jabayev</i>	«G'ozlar qaytib
Oykumush bilan	borayotir...» 99
aytishuv..... 71	<i>Abdukarim Ahmedov</i>
<i>Shokarim Qudoyberdiyev</i>	«Ko'nglim tumanli
Men ketarman, ortimda	edi...» 100
so'z, sozim qolar..... 74	<i>Burgut Is'hoqov</i>
<i>Ahmad Boytursunov</i>	«Muhabbatning,
Onamga xat	suyishning...» 101
<i>Umar Shipin</i>	<i>Quvondiq Shang'itboyev</i>
Omongeldi	Romans 102
<i>Mirjaqip Dulatov</i>	<i>To'qash Berdiyorov</i>
Elim-ov	«Sila mening
79	sochimni...» 103
<i>Mag'jon Jumaboyev</i>	<i>Iztoy Mambetov</i>
Sog'indim..... 81	«Uyquga cho'mar
<i>Sultonmahmud To'rayg'irov</i>	onda...» 104
Iliq tun	<i>Ergesh Ibrohim</i>
83	«Yildan yilga...» 105
<i>Saken Sayfullin</i>	<i>Muqag'ali Maqatayev</i>
May oyida	«Oshiqman...» 106
84	<i>Shamil Muhammadjonov</i>
<i>Beyimbet Maylin</i>	«Tumanli tun...» 107
Gadoga	
86	
<i>Sobit Muqonov</i>	
Suluvschoch..... 87	

<i>Qo'shjon Musirepov</i>	<i>To'lagan Aybergenov</i>
«Sevdim...»	Sir
<i>Qodir Mirzaaliyev</i>	<i>Fariza O'ng'orsinova</i>
«Ko'z olmayman uchrash-	«Ikkov - haqmiz...»
gan bir kezimda...»	<i>Muxtor Shaxanov</i>
<i>Tumanboy Mo'ldog'aliyev</i>	Jelto'qsonning olovi.....
«Qozoq degan xalq...»....	<i>Nurlan O'rozalin</i>
<i>Jumeken Najimetdinov</i>	Ona yurtim
«Sening soching...»	<i>Ulug'bek Esdavlet</i>
<i>O'ljas Sulaymonov</i>	Tavallud kuni
Bolalik kez. Bog'-bog'cha.	<i>Esong'ali Ravshan</i>
<i>Oftob</i>	Qorabovur qashqaldoq... 124

ҚОЗОҚНИНГ ҚИРҚ ОҚИНИДАН ҚИРҚ ҮЛАН

«Узбекистон миллий энциклопедияси»

Давлат илмий нашриёти

100011, Тошкент, Навоий кӯчаси, 30-уй.

Муҳаррир
Лайло Ҳасанова

Бадиий муҳаррир
Зилола Тўлаганова

Саҳифаловчи
Суннат Мусамедов

Оператор
Шоҳсанам Асимова

Нашриёт лицензияси: AI №160. 14.08.2009 й.

2018.04.04 да босишига рухсат этилди.

Қоғоз бичими 84x108 $\frac{1}{32}$. 6,72 шартли босма табори.

4,0 нашриёт-ҳисоб табори. Адади 1000 нусха.

Баҳоси шартнома асосида. 9 – буюртма.

«Ёшлар матбуоти» босмахонасида чоп этилди.
100113. Тошкент, Чилонзор-8, Қатортол кӯчаси, 60.

